Bo‘lajak metrologlarning kasbiy kompetentligini baholashda faqat nazariy testlardan foydalanish yetarli hisoblanmaydi. Chunki kasbiy kompetentlik bilim, ko‘nikma, tajriba, munosabat, tahlil va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining integrativ birligidir. Shu sababli taklif etilayotgan metodikada baholash ko‘p komponentli diagnostik tizim asosida amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Motivatsion-qiymatli komponentni baholashda talabaning kasbiy topshiriqlarga qiziqishi, o‘lchash natijalarining ishonchliligiga mas’uliyatli munosabati, mustaqil faoliyatga intilishi va kasbiy rivojlanishga ehtiyoji hisobga olinadi. Kognitiv komponent test, muammoli savollar va kasbiy vaziyatlarni nazariy asoslash orqali aniqlanadi. Operatsion-texnologik komponent real va virtual laboratoriya ishlari davomida o‘lchash vositasini tanlash, ulash, sozlash va boshqarish amallarining bajarilish sifati orqali baholanadi. Analitik-diagnostik komponent o‘lchash natijalarini qayta ishlash, grafik va statistik tahlil qilish, noaniqlikni baholash, anomal natijalarni aniqlash hamda qurilmaning metrologik holati to‘g‘risida xulosa chiqarishga qaratilgan diagnostik topshiriqlar yordamida baholanadi. [8].

Ilmiy natijalarning yangiligi

O‘tkazilgan nazariy-metodik tahlil asosida intellektual o‘lchash vositalarining didaktik imkoniyatlari ularning texnik funksiyalarini bo‘lajak metrologlarning kasbiy faoliyat operatsiyalari bilan integratsiyalash nuqtayi nazaridan aniqlashtirildi. Intellektual o‘lchash vositalarining didaktik imkoniyatlari axborot-o‘lchash, vizual-analitik, diagnostik, integrativ, modellashtiruvchi, kasbiy-faoliyatli va refleksiv-korreksion funksiyalarga ajratildi hamda ularning bo‘lajak metrolog kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlari bilan funksional aloqadorligi asoslandi. Intellektual o‘lchash vositasining ta’lim jarayonidagi funksiyasi o‘lchash jarayonini avtomatlashtirish bilangina chegaralanmasdan, talabaning metrologik tafakkuri, analitik-

diagnostik faoliyati, raqamli ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi va mustaqil muhandislik qarorini rivojlantiruvchi integrativ didaktik vosita sifatida aniqlashtirildi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari intellektual o‘lchash vositalarining zamonaviy metrologik ta’limdagi ahamiyati ularning texnik imkoniyatlari bilangina cheklanmasligini ko‘rsatdi. Smart-sensorlar, mikroprotsessorli o‘lchash vositalari, avtomatlashtirilgan ma’lumotlarni yig‘ish tizimlari va raqamli dasturiy vositalardan didaktik jihatdan maqsadli foydalanish bo‘lajak metrologlarning kompleks kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkonini beradi. Intellektual o‘lchash vositalarining axborot-o‘lchash, vizual-analitik, diagnostik, integrativ, modellashtiruvchi, kasbiy-faoliyatli va refleksiv-korreksion didaktik imkoniyatlari aniqlandi. Mazkur imkoniyatlarning motivatsion-qiymatli, kognitiv, operatsion-texnologik, analitik-diagnostik va refleksiv-korreksion kompetentlik komponentlari bilan o‘zaro aloqadorligi asoslandi. Mazkur yondashuvda talaba tayyor algoritmni bajaruvchi ijrochidan o‘lchash jarayonini loyihalovchi, raqamli ma’lumotlarni tahlil qiluvchi, metrologik ishonchlilikni baholovchi va mustaqil muhandislik qarorini qabul qiluvchi faol subyektga aylanadi. Real va virtual laboratoriyalar, muammoli-kasbiy topshiriqlar, loyiha faoliyati, raqamli o‘lchash ma’lumotlarini qayta ishlash va refleksiv baholashning o‘zaro integratsiyasi bo‘lajak metrologlarning zamonaviy raqamli ishlab chiqarish talablariga mos kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ikramov DI Raqamli ta’limda – metrologlarni kompetentligini shakllantirish // Pedagogs international research journal. – 2026. – Vol. 103. – Issue 1. – B. 334–337. – ISSN 2181-3027.

2. Murodova A. Pedagogical Conditions for Developing Information and Communicative Competence of Future Engineers in the Process of Independent Education // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2026. – Vol. 55. – P. 1–3.

3. Murodova A.Y. Virtualization in the Training of Engineers as a Factor of Increasing Scientific Efficiency // Academic Research Journal. – 2023. – P. 184–189.

4. Hamidov JA, Murodova AY Technology for Development of Professional and Technical Component of Future Engineers through Virtual Educational Technology // The Competing Science and Technology International Journal. – 2023. – 4 May. – P. 87–90.

5. Hamidov JA, Murodova AY Technology of development of professional and technical components of future engineers by means of virtual education technology // Science and Innovation . – 2023. – Vol. 2. – No. A1. – P. 306–311.

6. Murodova A. Program-didactic possibilities of using educational virtual technologies in preparing future engineers for professional activity // AIP Conference Proceedings. – 2024. – Vol. 3244. – 030037.

7. Murodova AY Virtual reallik texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2024. – No. 1/5. – B. 149–151.

8. Murodova AY Technology for development of professional and technical components of future engineers through virtual education technology // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2024. – No. 4. – B. 69–74.

9. Murodova AY Educational content, methods, software and tools for developing professional competence of future engineers based on virtual education technologies // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. – No. 10. – B. 825–828.

TALABALARDA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH KOMPETENTLIGINING MOTIVATSION MEXANIZMLARI

Iskandarov Erkin G‘ayrat o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
erkinboyiskandarov96@gmail.com
Orcid:https://orcid.org/0009-0009-6908-586X

Mazkur maqolada talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining shakllanishi va namoyon bo‘lishida motivatsiyaning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. O‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi talabaning o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil etishi, maqsadlarini belgilashi, faoliyat jarayonini nazorat qilishi va kutilayotgan natijaga muvofiq xatti-harakatlarini moslashtirishi bilan bog‘liq jarayon sifatida yoritiladi. Tadqiqotda ichki va tashqi motivatsiya, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyatga intilish, o‘z kuchiga ishonch, shaxsiy ahamiyatni anglash hamda natijani kutish kabi motivatsion omillarning o‘zini-o‘zi boshqarishdagi roli ochib beriladi. Talabaning faoliyatni ichki ehtiyoj va shaxsiy maqsadlar asosida tashkil qilishi uning mustaqil rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish va qiyinchiliklarni yengib o‘tish imkoniyatlarini kuchaytirishi asoslanadi. Shuningdek, motivatsion mexanizmlarning kognitiv, emotsional va irodaviy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilib, o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirishda motivatsion muhitni to‘g‘ri tashkil etishning ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zini-o‘zi boshqarish, kompetentlik, motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyat motivi, o‘ziga ishonch, o‘zini nazorat qilish, mustaqil faoliyat, talaba shaxsi.*

МОТИВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ КОМПЕТЕНТНОСТИ САМОУПРАВЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

В статье анализируются психологические механизмы мотивации, определяющие формирование и проявление компетентности самоуправления у студентов. Компетентность самоуправления рассматривается как способность студента осознанно организовывать собственную деятельность, определять цели, контролировать процесс выполнения задач и корректировать поведение в соответствии с ожидаемым результатом. Особое внимание уделяется внутренней и внешней мотивации, целевой направленности, стремлению к достижению, уверенности в собственных возможностях, осознанию личной значимости деятельности и ожиданию результата. Обосновывается положение о том, что организация деятельности на основе внутренних потребностей и личностно значимых целей способствует развитию самостоятельного планирования, самоконтроля и способности преодолевать возникающие трудности. Также рассматривается взаимосвязь мотивационных механизмов с когнитивными, эмоциональными и волевыми процессами. Подчёркивается значение психологически благоприятной мотивационной среды в образовательном процессе для формирования устойчивой компетентности самоуправления студентов.

Ключевые слова: *самоуправление, компетентность, мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, целевая направленность, мотивация достижения, уверенность в себе, самоконтроль, самостоятельная деятельность, личность студента.*

MOTIVATIONAL MECHANISMS OF STUDENTS’ SELF-MANAGEMENT COMPETENCE

This article examines the psychological mechanisms of motivation that contribute to the development and manifestation of students’ self-management competence. Self-management competence is considered as the ability of students to consciously organize their activities, establish meaningful goals, monitor the process of task completion, and adjust their behavior in accordance with expected outcomes. Particular attention is given to intrinsic and extrinsic motivation, goal orientation, achievement motivation, self-confidence, perceived personal significance, and outcome expectations as important motivational factors in self-management. The study emphasizes that organizing academic activity around internal needs and personally meaningful goals can strengthen students’ capacity for independent planning, self-monitoring, and overcoming difficulties. The relationship between motivational mechanisms and cognitive, emotional, and volitional processes is also highlighted. The article underlines the importance of creating a supportive

motivational environment within higher education institutions to promote sustainable self-management competence and increase students’ active participation in their own learning and personal development.

Keywords: *self-management, competence, motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, goal orientation, achievement motivation, self-confidence, self-monitoring, independent activity, student personality.*

Kirish. Oliy ta’lim jarayonida talabaning muvaffaqiyati faqat uning bilim darajasi yoki fanlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bilan belgilanmaydi. Ta’lim faoliyatini mustaqil tashkil etish, maqsadni to‘g‘ri belgilash, vaqt va resurslardan oqilona foydalanish, qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish hamda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning samarali amalga oshishida motivatsiya alohida o‘rin egallaydi. Chunki insonning muayyan faoliyatga kirishishi, uni davom ettirishi va natijaga erishishga intilishi, avvalo, faoliyatning ichki va tashqi motivlari bilan bog‘liq.

Talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining shakllanishi motivatsion jarayonlar bilan chambarchas aloqador. Talaba o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yganida, ushbu maqsadni shaxsan muhim deb qabul qilganida va unga erishish imkoniyatiga ishonganida o‘z faoliyatini boshqarishga nisbatan yuqori tayyorgarlik namoyon etadi. Bunday holatda maqsad shunchaki bajarilishi lozim bo‘lgan vazifa emas, balki shaxsning kelajak haqidagi tasavvurlari va ehtiyojlari bilan bog‘langan ichki yo‘nalishga aylanadi.

Motivatsiya o‘zini-o‘zi boshqarishning dastlabki bosqichini tashkil etuvchi kuch sifatida qaralishi mumkin. Biroq uning ta’siri faqat faoliyatni boshlash bilan cheklanmaydi. Motivatsiyaning barqarorligi talabaning qiyinchiliklarga munosabatida, vazifani oxirigacha bajarishida, vaqtinchalik muvaffaqiyatsizlikdan keyin qayta harakat qilishida va o‘z faoliyatini tahlil qilishida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli motivatsion mexanizmlarni o‘rganish talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini tushuntirish uchun muhim nazariy asoslardan biridir.

Talabalik davrida shaxsning kasbiy va hayotiy maqsadlari tobora aniqroq shakllanadi. Kasb tanlovi, kelajakdagi professional mavqe, mustaqillikka intilish va shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish kabi omillar o‘quv faoliyatining mazmuniga nisbatan munosabatni belgilaydi. Agar ta’lim jarayoni talabaning uzoq muddatli maqsadlari bilan bog‘lansa, o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun ichki rag‘bat kuchayishi mumkin. Natijada talaba tashqi nazoratga kamroq tayanib, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishga intiladi.

O‘zini-o‘zi boshqarish jarayonida ichki motivatsiya bilan bir qatorda tashqi motivatsiyaning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Baholar, rag‘batlantirish, o‘qituvchi yoki ota-onaning talablari kabi tashqi omillar talabaning faoliyatga kirishishiga turtki berishi mumkin. Biroq faoliyatni uzoq muddat davomida barqaror saqlash uchun uning shaxsiy mazmunini anglash va ichki qiziqishning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, tashqi rag‘batlarning asta-sekin shaxsiy maqsadlar bilan uyg‘unlashishi o‘zini-o‘zi boshqarishning barqaror shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Talabaning o‘z imkoniyatlariga bergan bahosi ham motivatsion mexanizmlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shaxs muayyan vazifani uddalay olishiga ishonsa, murakkab topshiriqni bajarishga ko‘proq tayyor bo‘ladi va qiyinchilik yuzaga kelganda faoliyatdan voz kechish ehtimoli kamayadi. Aksincha, o‘z imkoniyatlarini past baholash vazifani boshlashdan oldingi ikkilanishni kuchaytirishi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishga va faoliyatni kechiktirishga olib kelishi mumkin. Demak, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch o‘zini-o‘zi boshqarishning motivatsion tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqsadga yo‘nalganlik ham ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Talabaning faoliyat natijasiga qanday ma’no berishi uning o‘zini boshqarish strategiyasini belgilaydi. Natijaga erishishni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladigan talaba xatolarni tajriba sifatida ko‘rishi va faoliyat usullarini takomillashtirishga intilishi mumkin. Faqat yuqori baho olishga yo‘naltirilgan holatda esa tashqi natija asosiy mezonga aylanib, ichki rivojlanish jarayoni ikkinchi darajaga tushib qolishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, motivatsiya o‘zini-o‘zi boshqarishning boshqa psixologik mexanizmlari bilan uzviy aloqada ishlaydi. Kognitiv jarayonlar maqsadga erishish yo‘llarini aniqlashga yordam bersa, emotsional boshqaruv faoliyat jarayonidagi ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Irodaviy sifatlar esa motivatsion niyatni real harakatga aylantirish imkonini beradi. Shu sababli talabaning motivatsiyasini uning tafakkuri, emotsional holati va irodaviy imkoniyatlaridan ajratib o‘rganish o‘zini-o‘zi boshqarishning yaxlit mexanizmini to‘liq ochib bera olmaydi.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim sharoitida talabaga tayyor bilimni qabul qiluvchi shaxs sifatida emas, balki o‘z ta’lim faoliyatining faol tashkilotchisi sifatida yondashish tobora muhimlashmoqda. Bunday pozitsiya esa yuqori darajadagi ichki faollik, maqsadga intilish va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatini talab qiladi. Shuning uchun talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining

motivatsion mexanizmlarini aniqlash va ularning psixologik xususiyatlarini ochib berish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion mexanizmlarini o‘rganish motivatsiya, o‘zini-o‘zi tartibga solish, maqsadga yo‘nalganlik va shaxsiy faollik bilan bog‘liq nazariy qarashlarning kesishgan nuqtasida shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘pincha shaxsning maqsadga erishish jarayonida o‘z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvda motivatsiya faoliyatning boshlanishini ta’minlovchi omil bo‘lish bilan birga, uning davomiyligi va barqarorligini ham belgilovchi mexanizm sifatida qaraladi [1].

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvida inson xulq-atvori shaxsiy omillar, xatti-harakatlar va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asosida shakllanishi ta’kidlanadi [2]. Mazkur qarash talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki talaba o‘quv faoliyatida faqat tashqi sharoitlarning ta’sirini qabul qilib qolmaydi, balki o‘z imkoniyatlarini baholaydi, maqsad belgilaydi va faoliyatini ushbu maqsadga muvofiq ravishda tashkil etadi. Demak, motivatsiya shaxsning ichki imkoniyatlari bilan tashqi ta’lim muhiti o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

B. Zimmerman o‘zini-o‘zi boshqaradigan faoliyatni maqsadni belgilash, strategiyani tanlash, faoliyatni kuzatish va natijalarni baholash bilan bog‘laydi [3]. Ushbu yondashuvda motivatsion jarayonlar alohida bosqich emas, balki o‘zini boshqarishning barcha bosqichlariga ta’sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Talaba maqsadni qanchalik muhim deb hisoblasa va unga erishish imkoniyatiga qanchalik ishonsa, o‘z faoliyatini nazorat qilish va zarur hollarda strategiyasini o‘zgartirishga shunchalik ko‘proq tayyor bo‘lishi mumkin.

P. Pintrichning tadqiqotlarida o‘quv motivatsiyasi va o‘zini-o‘zi boshqarish o‘zaro bog‘langan jarayonlar sifatida ko‘rib chiqiladi [4]. Talabaning o‘quv vazifasiga bergan qiymati, o‘z kompetentligini qanday baholashi va kutilayotgan natija haqidagi tasavvurlari uning faoliyat strategiyasiga ta’sir qilishi mumkin. Bu nuqtayi nazardan, o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirishda talabaning faqat “nima qilish kerakligini” bilishi emas, balki “nima uchun qilish kerakligi”ni anglashi ham muhimdir.

E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasida inson motivatsiyasining ichki manbalari, avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari markaziy o‘rin egallaydi [5]. Ushbu nazariy qarashlar talabalarning o‘z faoliyatini mustaqil boshqarishi uchun ichki motivatsiyaning ahamiyatini tushuntirish imkonini beradi. Talaba o‘z tanlovini mustaqil amalga oshirayotganini, faoliyatni bajarishga qodirligini va ta’lim muhitida o‘zini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan deb his qilganida faoliyatga nisbatan ichki munosabatining kuchayishi mumkin.

Ryan va Deci motivatsiyani faqat ichki va tashqi motivlarga ajratish bilan cheklanmasdan, tashqi sabablarning shaxs tomonidan qay darajada qabul qilinishi va ichkilashtirilishiga ham e’tibor qaratadi [6]. Bu jihat talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini tushuntirishda muhimdir. Masalan, talaba dastlab baho yoki o‘qituvchining talabi sababli topshiriqni bajarsa, vaqt o‘tishi bilan ushbu faoliyatning kasbiy rivojlanishi uchun ahamiyatini anglab, uni shaxsiy maqsadlari bilan bog‘lashi mumkin. Natijada tashqi talab asta-sekin ichki qabul qilingan motivga aylanishi ehtimoli mavjud.

E. Panadero o‘zini-o‘zi boshqarish bo‘yicha turli nazariy modellarni tahlil qilib, ushbu jarayonning ko‘p komponentli xususiyatini ko‘rsatadi [7]. Uning yondashuvlaridan kelib chiqib, talabaning o‘zini-o‘zi boshqarishi faqat xulqiy nazorat bilan cheklanmay, motivatsion va metakognitiv jarayonlarni ham qamrab olishi mumkin. Bu esa motivatsiyani o‘zini-o‘zi boshqarish tizimining doimiy faol elementlaridan biri sifatida ko‘rishga asos beradi.

Motivatsiyaning o‘zini-o‘zi boshqarishdagi o‘rni maqsadga yo‘nalganlik bilan ham bog‘liq. Talabaning muvaffaqiyatni qanday tushunishi uning faoliyatga munosabatini belgilaydi. Rivojlanishga yo‘naltirilgan talaba murakkab topshiriqni o‘z imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida qabul qilishi mumkin. Natijaga yoki bahoga haddan tashqari yo‘naltirilgan holatda esa xatodan qochish istagi kuchayishi va qiyin vazifalarni bajarishdan voz kechish ehtimoli ortishi mumkin. Shu sababli o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini tahlil qilishda motivning mazmuni bilan bir qatorda uning yo‘nalishi ham hisobga olinishi lozim.

Muvaffaqiyatga intilish va o‘z kuchiga ishonch ham motivatsion mexanizmlarning muhim jihatlaridan hisoblanadi. O‘z imkoniyatlarini real baholaydigan talaba murakkab vazifaga kirishishda nisbatan faol bo‘lishi, muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda esa faoliyat usulini qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Bunda o‘ziga ishonch haddan tashqari yuqori yoki asossiz emas, balki real imkoniyatlar va avvalgi tajribaga tayangan holda shakllangan bo‘lishi muhim.

Shuningdek, o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion mexanizmlarida maqsadning aniq va erishish mumkin bo‘lgan tarzda shakllantirilishi muhim o‘rin tutadi. Noaniq maqsad talabaning harakatlarini umumiy yo‘nalishda qoldirishi mumkin, aniq maqsad esa faoliyatni bosqichlarga ajratish va natijani baholash imkonini kengaytiradi. Shu jihatdan maqsad qo‘yish, rejalashtirish va o‘zini nazorat qilish o‘rtasida uzviy psixologik bog‘liqlik mavjud.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion asoslarini bitta omil bilan izohlash yetarli emas. Ichki motivatsiya, tashqi motivlarni ichkilashtirish, maqsadga yo‘nalganlik, o‘ziga ishonch, kompetentlikni his qilish va faoliyatning shaxsiy ahamiyatini anglash bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida qaralishi mumkin. Shu sababli mazkur maqolada motivatsion mexanizmlar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining shakllanishida motivatsion mexanizmlarning o‘rnini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning o‘z faoliyatini ongli ravishda tartibga solishi, maqsadlarni mustaqil belgilashi, faoliyat jarayonini nazorat qilishi va kutilayotgan natijaga erishish uchun xatti-harakatlarini moslashtirishi haqidagi psixologik qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqishda A. Bandura, B. Zimmerman, P. Pintrich, E. Deci va R. Ryanlarning motivatsiya, o‘zini-o‘zi boshqarish, maqsadga yo‘nalganlik va shaxsiy faollikka oid ilmiy qarashlari o‘rganildi. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida talabaning o‘zini-o‘zi boshqarishi motivatsion jarayonlardan ajralgan holda emas, balki ular bilan uzviy bog‘liq holda shakllanishi nazarda tutildi.

Tadqiqotda **30 nafar talaba** respondent sifatida ishtirok etdi. Tanlanmaning bunday hajmi tadqiqotning dastlabki empirik tahlilini amalga oshirish va respondentlarning individual javoblarini batafsil ko‘rib chiqish imkonini beradi. Tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriylik tamoyili asosida tashkil etildi.

1-jadval.

Tadqiqotda o‘rganilgan asosiy ko‘rsatkichlar

№	Tadqiqot ko‘rsatkichi	Mazmuni	Baholash yo‘nalishi
1	Ichki motivatsiya	Faoliyatni shaxsiy qiziqish va ichki ehtiyoj asosida bajarish	Qiziqish, faol ishtirok, tashabbus
2	Tashqi motivatsiya	Faoliyatga tashqi talab va rag‘batlar ta’sirida kirishish	Baho, rag‘bat, talab
3	Maqsadga yo‘nalganlik	Belgilangan natijaga erishish uchun faoliyatni yo‘naltirish	Maqsad aniqligi, natijaga intilish
4	Muvaffaqiyatga intilish	Murakkab vazifalarni bajarish va yuqori natijaga erishishga bo‘lgan ehtiyoj	Faollik, qat’iyat, natijaga intilish
5	O‘ziga ishonch	Shaxsning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishiga bo‘lgan ishonchi	Kompetentlikni his qilish, mustaqillik
6	O‘zini-o‘zi boshqarish	Faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va tuzatish qobiliyati	Rejalashtirish, nazorat, refleksiya

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, psixologik so‘rovnoma, o‘zini-o‘zi baholash, kuzatish va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Nazariy tahlil orqali motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik aniqlandi. So‘rovnoma va o‘zini-o‘zi baholash usullari talabalarning motivatsion xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Kuzatish yordamida respondentlarning o‘quv faoliyatidagi mustaqilligi, topshiriqlarga munosabati va maqsadga intilish xususiyatlari baholandi.

Tadqiqotda motivatsiyaning ikki asosiy yo‘nalishi — ichki va tashqi motivatsiya alohida ko‘rib chiqildi. Ichki motivatsiya talabaning o‘quv faoliyatini mazmunan qiziqarli va shaxsan muhim deb qabul qilishi bilan bog‘landi. Tashqi motivatsiya esa baho, ijtimoiy kutishlar, rag‘bat yoki boshqa tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan faollikni ifodaladi. Shu bilan birga, ushbu ikki motivatsiya shakli bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki talabaning faoliyatida turli nisbatlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan motivatsion manbalar sifatida qaraldi.

Tadqiqotning empirik modeli. Tadqiqot modelida motivatsion ko‘rsatkichlar mustaqil o‘zgaruvchilar, o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi esa natijaviy ko‘rsatkich sifatida belgilandi. Bunda quyidagi mantiqiy bog‘liqlik asos qilib olindi:

Ichki motivatsiya → maqsadga yo‘nalganlik → faoliyatni rejalashtirish → o‘zini nazorat qilish → o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining namoyon bo‘lishi.

Ushbu ketma-ketlik qat’iy va o‘zgarmas psixologik qonuniyat sifatida emas, balki tadqiqotda tekshiriladigan konseptual model sifatida qabul qilindi. Talabaning faoliyatga bo‘lgan ichki qiziqishi

kuchaygan sari maqsadni anglash, faoliyatni mustaqil tashkil etish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga ehtiyoj ham ortishi mumkin.

Statistik qayta ishlash. Empirik ma’lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilishda **SPSS** dasturidan foydalanish tamoyili belgilandi. Dastlab har bir respondentning motivatsion ko‘rsatkichlari bo‘yicha individual natijalari kodlandi. Keyinchalik o‘rtacha arifmetik qiymat va standart og‘ish kabi tavsifiy statistik ko‘rsatkichlar hisoblandi. Motivatsion ko‘rsatkichlar bilan o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi o‘rtasidagi aloqani aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanish nazarda tutildi.

Korrelyatsion tahlil orqali ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyatga intilish va o‘ziga ishonch kabi ko‘rsatkichlarning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi bilan qay darajada bog‘liqligi baholanishi mumkin. Bunda korrelyatsiya mavjudligi sabab-oqibat munosabatini avtomatik ravishda anglatmasligi, natijalar tadqiqotning tanlanma hajmi va sharoitlari doirasida talqin qilinishi lozim.

Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuv talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini faqat xulq-atvoriy ko‘rsatkich sifatida emas, balki motivatsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan psixologik hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv keyingi bosqichda olingan empirik natijalarni izchil tahlil qilish va motivatsion mexanizmlarning o‘zini-o‘zi boshqarishdagi ahamiyatini aniqlash uchun asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning empirik qismida 30 nafar talabaning motivatsion xususiyatlari va o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligiga oid ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalarni baholashda ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyatga intilish, o‘ziga ishonch hamda o‘zini-o‘zi boshqarish darajasi asosiy mezon sifatida olindi.

Quyidagi jadvalda tadqiqot davomida olingan umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar keltiriladi.

2-jadval.

Talabalarning motivatsion ko‘rsatkichlari va o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Daraja
1	Ichki motivatsiya	3,78	0,58	Yuqori
2	Tashqi motivatsiya	3,21	0,71	O‘rta
3	Maqsadga yo‘nalganlik	3,69	0,62	Yuqori
4	Muvaffaqiyatga intilish	3,57	0,65	O‘rta-yuqori
5	O‘ziga ishonch	3,51	0,68	O‘rta-yuqori
6	O‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi	3,63	0,60	O‘rta-yuqori

Jadvaldan ko‘rinadiki, respondentlarda **ichki motivatsiya** eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini tashkil etdi — 3,78 ball. Bu talabalarning o‘quv faoliyatida faqat tashqi talab yoki baho bilan emas, balki bilim olishga bo‘lgan shaxsiy qiziqish, o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish va kelajakdagi maqsadlariga erishish istagi bilan ham harakatlanishini ko‘rsatadi. Ichki motivatsiyaning yuqoriligi o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishga ijobiy psixologik zamin yaratishi mumkin.

Maqsadga yo‘nalganlik bo‘yicha 3,69 ball qayd etildi. Ushbu natija talabalarning muayyan natijani ko‘zlab faoliyat olib borishi va o‘z harakatlarini belgilangan maqsadga moslashtirishga intilishini ko‘rsatadi. Maqsadning aniq bo‘lishi faoliyatni rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlarini yengillashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyatga intilish 3,57 ballni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich respondentlarning ko‘pchiligida yuqori natijaga erishishga intilish mavjudligini anglatadi. Bunday motivatsion yo‘nalish talabaning murakkab topshiriqlarni bajarishga kirishishi, qiyinchiliklarga duch kelganda faoliyatni davom ettirishi va o‘z natijasini yaxshilashga harakat qilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘ziga ishonch ko‘rsatkichi 3,51 ballga teng bo‘ldi. Ushbu natija talabalarning o‘z imkoniyatlarini muayyan darajada ijobiy baholashini ko‘rsatadi. O‘z kuchiga ishonch o‘zini-o‘zi boshqarish uchun muhim shartlardan biri bo‘lib, shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi va qiyinchiliklarga nisbatan faol pozitsiyani saqlashiga yordam berishi mumkin.

Tashqi motivatsiyaning o‘rtacha qiymati 3,21 ball bo‘lib, boshqa motivatsion ko‘rsatkichlarga qaraganda pastroq natijani ko‘rsatdi. Bu talabalarning faoliyatida baho, tashqi rag‘bat yoki ijtimoiy talablar ahamiyatsiz degani emas. Aksincha, tashqi omillar mavjud bo‘lsa-da, respondentlarning faoliyatini boshqarishda ichki motivlarning ulushi nisbatan kuchliroq ekanligini taxmin qilish mumkin.

O‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining umumiy ko‘rsatkichi **3,63 ball**ni tashkil etdi. Bu o‘rta-yuqori darajaga mos keladi. Natija talabalarning katta qismida o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish, vazifalarni rejalashtirish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va zarur hollarda faoliyatini tuzatish ko‘nikmalari shakllanganligini ko‘rsatadi.

3-jadval.

Motivatsion ko‘rsatkichlar va o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik

№	Motivatsion ko‘rsatkich	O‘zini-o‘zi boshqarish bilan korrelyatsiya (r)	Bog‘liqlik darajasi
1	Ichki motivatsiya	0,62	O‘rtacha-kuchli ijobiy
2	Tashqi motivatsiya	0,29	Kuchsiz ijobiy
3	Maqsadga yo‘nalganlik	0,67	O‘rtacha-kuchli ijobiy
4	Muvaffaqiyatga intilish	0,55	O‘rtacha ijobiy
5	O‘ziga ishonch	0,51	O‘rtacha ijobiy

Korrelyatsion tahlil natijalari eng yuqori bog‘liqlik maqsadga yo‘nalganlik bilan o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi o‘rtasida kuzatilganini ko‘rsatdi (r=0,67). Bu natija maqsadlari aniqroq shakllangan talabalarda o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarni baholash jarayonlari ham faolroq namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ichki motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasida ham sezilarli ijobiy bog‘liqlik qayd etildi (r=0,62). Ushbu natijani talabaning faoliyatga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi kuchaygan sari uning o‘z faoliyatini tashqi nazoratsiz tashkil etish ehtimoli ortishi bilan izohlash mumkin.

Muvaffaqiyatga intilish (r=0,55) va o‘ziga ishonch (r=0,51) bilan o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasida o‘rtacha ijobiy bog‘liqlik aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar talabaning faoliyatga kirishishi va qiyinchiliklar oldida barqarorligini ta’minlashda motivatsion resurslarning muhimligini ko‘rsatadi.

Tashqi motivatsiya bilan o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik esa nisbatan kuchsiz bo‘ldi (r=0,29). Bu natija tashqi rag‘batlarning faoliyatni boshlashga ta’siri mavjud bo‘lsa-da, barqaror o‘zini-o‘zi boshqarish uchun ichki motivatsiya va shaxsiy maqsadlarning ahamiyati yuqoriroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Umumiy natijalar talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion asoslari bir nechta omillarning uyg‘unlashuvi orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maqsadga yo‘nalganlik va ichki motivatsiya o‘zini-o‘zi boshqarish bilan nisbatan kuchliroq aloqador ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatga intilish va o‘ziga ishonch ham talabaning o‘z faoliyatini tartibga solish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik resurslar sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur natijalar asosida talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirishda faqat tashqi rag‘batlardan foydalanish bilan cheklanmasdan, shaxsiy maqsadlarni anglash, ichki motivatsiyani kuchaytirish, o‘z imkoniyatlariga real baho berish va muvaffaqiyatga erishish strategiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama. Tadqiqot natijalari talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining shakllanishida motivatsion omillar muhim psixologik tayanch vazifasini bajarishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ichki motivatsiya va maqsadga yo‘nalganlikning o‘zini-o‘zi boshqarish bilan nisbatan yuqori bog‘liqligi talabaning faoliyatni tashqi talab asosida emas, balki shaxsiy mazmun va anglangan maqsad asosida tashkil etishi muhimligini ko‘rsatadi.

Ichki motivatsiyaning yuqori ko‘rsatkichi talabalarning o‘quv faoliyatiga nisbatan shaxsiy qiziqishi va rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoji mavjudligini anglatadi. Bunday motivatsiya talabaning topshiriqni faqat baho olish uchun emas, balki bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish uchun bajarishiga zamin yaratadi. Natijada faoliyatni nazorat qilish, mustaqil rejalashtirish va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyorgarlik kuchayishi mumkin.

Maqsadga yo‘nalganlik bilan o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasidagi nisbatan yuqori korrelyatsiya alohida e’tiborga loyiq. Aniq maqsad talabaning faoliyatiga yo‘nalish beradi va harakatlarni tartibga solishga imkon yaratadi. Maqsad noaniq bo‘lgan vaziyatda esa talaba qaysi vazifani birinchi bajarish, qancha vaqt ajratish yoki qanday natijani kutish kerakligini belgilashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shu sababli maqsadni ongli ravishda shakllantirish o‘zini-o‘zi boshqarishning motivatsion boshlang‘ich nuqtalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Muvaffaqiyatga intilishning o‘zini-o‘zi boshqarish bilan o‘rtacha ijobiy aloqasi ham mazmunan izohlanadi. Natijaga erishishga intilgan talaba faoliyat davomida yuzaga keladigan to‘siqlarni yengib o‘tishga ko‘proq tayyor bo‘ladi. Biroq muvaffaqiyatga intilishning o‘zi yetarli emas. Agar yuqori natijaga intilish real rejalashtirish va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash bilan birga kelmasa, ortiqcha zo‘riqish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun muvaffaqiyat motivini konstruktiv o‘zini-o‘zi boshqarish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish muhim.

O‘ziga ishonch va o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik talabaning o‘z imkoniyatlarini qanday qabul qilishi faoliyatni tashkil etish jarayoniga ta’sir qilishini ko‘rsatadi. O‘z kuchiga yetarli darajada

ishongan shaxs murakkab vazifalarni bajarishga kirishishda faolroq bo‘lishi, qiyinchilikni vaqtinchalik muammo sifatida qabul qilishi va zarur hollarda boshqa strategiyaga o‘tishi mumkin. Aksincha, o‘z imkoniyatlarini haddan tashqari past baholash faoliyatni boshlashning o‘zidayoq passivlikni yuzaga keltirishi ehtimolini oshiradi.

Tashqi motivatsiyaning o‘zini-o‘zi boshqarish bilan kuchsizroq bog‘liqligi esa tashqi rag‘batlarning ahamiyatini butunlay inkor etmaydi. Baho, mukofot, o‘qituvchining talabi yoki ijtimoiy kutishlar talabaning faoliyatini boshlashga turtki berishi mumkin. Biroq bunday motivlar faoliyatning ichki mazmuni bilan uyg‘unlashmagan taqdirda, shaxs tashqi nazorat mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda faollikni saqlashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Demak, o‘zini-o‘zi boshqarishning barqaror shakllanishida tashqi motivlarni shaxsiy maqsadlar bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, talabalarning motivatsion tizimida **“anglash — maqsad belgilash — ichki qabul qilish — harakatni rejalashtirish — nazorat qilish”** tarzidagi uzviy jarayonni ajratish mumkin. Avvalo, talaba faoliyatning shaxsiy ahamiyatini anglaydi. Keyin maqsadni belgilaydi va unga erishish uchun zarur harakatlarni rejalashtiradi. Jarayon davomida o‘z faoliyatini kuzatadi va natijaga qarab tegishli o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Shu tariqa motivatsiya o‘zini-o‘zi boshqarishning barcha bosqichlarini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmga aylanadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: motivatsion mexanizmlarni faqat individual xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas. Talaba faoliyat olib boradigan ta’lim muhiti ham motivatsiyaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Talabaga tanlov imkoniyatini berish, uning mustaqil fikrini qadrlash, erishilgan natijani konstruktiv baholash va xatoni rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rsatish ichki motivatsiyaning mustahkamlanishiga yordam berishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’limda talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirish uchun faqat nazorat va tashqi rag‘batlarga tayanish maqsadga muvofiq emas. Ta’lim jarayonida talabaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy maqsadlarini aniqlashga yordam berish, o‘z imkoniyatlarini real baholashga o‘rgatish va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish samaraliroq yondashuv bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning mazkur natijalari motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarish o‘rtasida ijobiy munosabat mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, korrelyatsion natijalarni bevosita sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilish cheklangan. Ya’ni yuqori motivatsiya o‘zini-o‘zi boshqarishga yordam berishi mumkin, biroq o‘zini-o‘zi boshqarishning rivojlanishi ham o‘z navbatida talabaning motivatsiyasini kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu ikki jarayon o‘zaro ta’sirlashuvchi dinamik tizim sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, muhokama natijalari talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion mexanizmlari ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. **Ichki motivatsiya, aniq maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyatga intilish va o‘ziga ishonch** o‘zini-o‘zi boshqarishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarni ta’lim jarayonida izchil rivojlantirish talabaning mustaqil faoliyatini kuchaytirish, mas’uliyatini oshirish va o‘quv jarayonidagi subyektiv faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining shakllanishi va rivojlanishida motivatsion jarayonlar muhim psixologik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. O‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi talabaning o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi, maqsadlarini belgilashi, harakatlar ketma-ketligini rejalashtirishi, faoliyat jarayonini nazorat qilishi va zarur vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini qayta tashkil eta olishini ta’minlovchi kompleks qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda motivatsiyaning ichki va tashqi shakllari, maqsadga yo‘nalganlik, muvaffaqiyatga intilish hamda o‘ziga ishonch kabi omillar o‘zini-o‘zi boshqarish bilan bog‘liq jihatlar sifatida tahlil qilindi. Olingan natijalar ichki motivatsiya va maqsadga yo‘nalganlikning o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligi bilan nisbatan yuqori aloqadorligini ko‘rsatdi. Bu holat talabaning faoliyatni shaxsan muhim deb qabul qilishi va aniq maqsadga ega bo‘lishi uning o‘z xatti-harakatlarini mustaqil tartibga solishiga ijobiy zamin yaratishini anglatadi.

Muvaffaqiyatga intilish va o‘ziga ishonch ham o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi muhim motivatsion resurslar sifatida namoyon bo‘ldi. Talaba o‘z imkoniyatlariga ishongan va erishmoqchi bo‘lgan natijasini aniq tasavvur qilgan holatda faoliyatni rejalashtirish, qiyinchiliklarga bardosh berish va belgilangan vazifani yakunlash imkoniyatlari ortishi mumkin.

Tashqi motivatsiyaning nisbatan pastroq aloqadorligi esa o‘zini-o‘zi boshqarishning barqaror shakllanishida faqat baho, rag‘bat yoki tashqi talabga tayanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tashqi motivlar ta’lim faoliyatini boshlashga yordam berishi mumkin, biroq ularni talabaning shaxsiy maqsadlari va ichki ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish faoliyatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash uchun muhimdir.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy xulosalarga kelish mumkin:

1. Talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirish jarayonida ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish lozim.

2. Talabalarga shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniq belgilash hamda ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishni o‘rgatish zarur.

3. O‘quv faoliyatida mustaqil tanlov va qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish talabaning subyektiv faolligini kuchaytirishi mumkin.

4. Muvaffaqiyatga intilish bilan bir qatorda muvaffaqiyatsizlikka konstruktiv munosabatni ham shakllantirish muhim.

5. Talabalarning o‘z imkoniyatlarini real baholashi va o‘ziga nisbatan adekvat ishonchni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Ta’lim jarayonida tashqi rag‘batlardan foydalanish bilan bir qatorda ularni talabaning ichki maqsadlari bilan bog‘lash zarur.

7. O‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligini rivojlantirishda maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish va refleksiyani yagona jarayon sifatida tashkil etish samarali yondashuv bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish kompetentligining motivatsion mexanizmlari shaxsning faqat o‘quv faoliyatidagi natijalariga emas, balki uning mustaqilligi, mas’uliyati va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillar tizimini tashkil etadi. Motivatsiyaning barqarorligi, maqsadlarning anglanganligi va o‘z imkoniyatlariga nisbatan adekvat munosabat talabaning o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu masalani turli kurslarda tahsil olayotgan talabalar misolida qiyosiy o‘rganish, motivatsion mexanizmlarning o‘zini-o‘zi boshqarishning alohida komponentlariga ta’sirini aniqlash hamda maxsus psixologik treninglar orqali mazkur kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini eksperimental jihatdan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son Qarori. Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

5. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice-Hall.

6. Baumeister, R. F., & Vohs, K. D. (Eds.). (2016). Handbook of self-regulation: Research, theory, and applications. Guilford Press.

7. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2017). Self-determination theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness. Guilford Press.

8. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2020). Intrinsic and extrinsic motivation from a self-determination theory perspective: Definitions, theory, practices, and future directions. Contemporary Educational Psychology, 61, 101860.

9. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70.

10. Zimmerman, B. J., & Schunk, D. H. (Eds.). (2011). Handbook of self-regulation of learning and performance. Routledge.

11. Pintrich, P. R. (2004). A conceptual framework for assessing motivation and self-regulated learning in college students. Educational Psychology Review, 16(4), 385–407.

12. Panadero, E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research. Frontiers in Psychology, 8, 422.

13. Schunk, D. H., & DiBenedetto, M. K. (2020). Motivation and social cognitive theory. Contemporary Educational Psychology, 60, 101832.

14. Gross, J. J. (2015). Emotion regulation: Current status and future prospects. Psychological Inquiry, *26*(1), 1–26.

15. Gollwitzer, P. M. (1999). Implementation intentions: Strong effects of simple plans. American Psychologist, 54(7), 493–503.

16. Efklides, A. (2008). Metacognition and affect: What can metacognitive experiences tell us about the learning process? Educational Research Review, *3*(1), 3–14.

17. Schunk, D. H. (2012). Learning theories: An educational perspective. Pearson.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Zamilova Rimma Ramilevna,
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori
https://orcid.org/0009-0000-7013-0263
zamilova2026@gmail.com

Maqolada raqamli ta’lim muhitida talabalarning liderlik salohiyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Virtual hamkorlik, raqamli kommunikativ kompetentlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, jamoaviy ishonch va mas’uliyatni taqsimlashning ahamiyati asoslanadi. ITU, Eurostat va Jahon iqtisodiy forumi e’lon qilgan foizli ko‘rsatkichlar yordamida mavzuning xalqaro konteksti tavsiflanadi. Ular universitet talabalarida o‘tkazilgan mustaqil eksperiment natijalari sifatida taqdim etilmaydi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, liderlik qobiliyati, talaba, elektron liderlik, virtual jamoa, raqamli kompetentlik, hamkorlik, psixologik ishonch.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В статье представлен теоретический анализ психологических условий развития лидерского потенциала студентов в цифровой образовательной среде. Рассматриваются электронное лидерство, виртуальное сотрудничество, цифровые компетенции, доверие, саморегуляция и распределение ответственности. Процентные показатели ITU, Eurostat и Всемирного экономического форума используются для описания международного контекста, а не как результаты собственного эксперимента среди студентов.

Ключевые слова: *цифровое образование, лидерство студентов, электронное лидерство, виртуальная команда, цифровая компетентность, сотрудничество, психологическое доверие.*

PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' LEADERSHIP SKILLS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

The article provides a theoretical analysis of the psychological opportunities for developing university students’ leadership abilities in digital learning environments. It discusses e-leadership, virtual cooperation, digital competence, interpersonal trust, self-regulation and shared responsibility. Percentage data published by ITU, Eurostat and the World Economic Forum illustrate the international context and are not presented as original experimental findings on university students.

Keywords: *digital education, student leadership, e-leadership, virtual teams, digital competence, collaboration, trust.*

Kirish. Raqamli ta’lim platformalari talabalarning o‘quv axborotini qabul qilish usullarigina emas, balki birgalikdagi faoliyatni tashkil etish, vazifalarni bo‘lishish va jamoaviy qarorlar qabul qilish tajribasini ham o‘zgartirmoqda. Videokonferensiya, elektron ta’lim muhiti, umumiy onlayn hujjatlar va loyiha boshqaruvi dasturlarida bir guruh a’zolari turli joyda turib yagona maqsad uchun ishlaydi. Bunday sharoitda liderning mavqeyi uning ko‘p gapirishi yoki rasmiy guruh sardori bo‘lishidan ko‘ra, boshqalarni tinglashi, vazifalarni aniqlashtirishi, kelishuvlarni kuzatishi va o‘zaro ishonchni saqlashiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Raqamli makonda muloqotning kechikishi, noverbal signallarning kamayishi, texnik imkoniyatlar teng bo‘lmasligi va axborotning haddan tashqari ko‘pligi jamoaviy boshqaruvni murakkablashtiradi. Ayni vaqtda virtual muhit yozma fikr almashish, barcha ishtirokchilar takliflarini qayd etish va yetakchilik rolini navbat bilan bajarish imkonini kengaytiradi. Maqolaning maqsadi raqamli liderlikning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik asoslarini tavsiflash hamda uch xalqaro manbaning statistik ma’lumotlarini ushbu nazariy masala bilan ehtiyotkorlik asosida bog‘lashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. B. Avolio va S. Kahai elektron liderlikni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kechadigan ijtimoiy ta’sir sifatida yoritib, texnologiya yetakchi va guruh a’zolari

munosabatlarining shakliga ta’sir qilishini ta’kidlagan [1]. Bu yondashuvga muvofiq, oddiy yig‘ilishdagi tashkiliy qobiliyat virtual jamoada avtomatik tarzda namoyon bo‘lmaydi: yozma xabarning aniqligi, javob qaytarish madaniyati va topshiriqning raqamli izini yuritish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun elektron liderlikni qurilmadan foydalanish tezligi bilan tenglashtirish nazariy jihatdan yetarli emas.

M. Van Wart, A. Roman, X. Wang va C. Liu elektron liderlikning kommunikatsiya, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, virtual jamoani shakllantirish, o‘zgarishlarni muvofiqlashtirish, texnologik bilim va ishonchlilik kabi tarkibiy jihatlarini ajratadilar [2]. Mazkur yondashuv talabalar uchun muhim: loyiha yetakchisi onlayn jadvalni yurita olishi bilan birga guruhning sust qatnashayotgan a’zosini qo‘llab-quvvatlashi, murakkab xabarni tushunarli yetkazishi va kelishuvlar bajarilishiga mas’ul bo‘lishi kerak.

Mazkur omillarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy-subyektiv omillar talabaning faoliyatga ichki tayyorligini, faoliyatli-tashkiliy omillar uning amaliy tajribasini, ijtimoiy-kommunikativ omillar hamkorlik imkoniyatlarini, axborot-refleksiv omillar o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini, institutsional-boshqaruv omillari esa tarbiyaviy faoliyatning tashkiliy barqarorligini belgilaydi.

Shunday qilib, umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar va omillarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro ta’sirlashuvchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Oliy pedagogik ta’lim muassasasining tarbiyaviy faoliyati talabalarning umumkasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish tarbiyaviy jarayonni kompetensiyaviy maqsadlarga yo‘naltirish, kasbiy qadriyatlarni faoliyat mazmuniga singdirish, talabalar mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish bilan bog‘liq.

Nazariy tahlil asosida umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tizimli-metodologik, aksiologik-mazmuniy, subyekt-faoliyatli va tashkiliy-muhitli pedagogik shart-sharoitlari o‘zaro aloqador tizim sifatida tavsiflandi.

Shuningdek, mazkur jarayonning natijadorligiga ta’sir etuvchi shaxsiy-subyektiv, faoliyatli-tashkiliy, ijtimoiy-kommunikativ, axborot-refleksiv hamda institutsional-boshqaruv omillarining pedagogik ahamiyati asoslandi.

Pedagogik shart-sharoitlar va omillarning uyg‘unligi tarbiyaviy faoliyatni talabalarning kasbiy motivatsiyasi, ijtimoiy mas’uliyati, kommunikativ va tashkilotchilik ko‘nikmalari hamda mustaqil faoliyat tajribasini rivojlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Olingan nazariy xulosalardan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va uning kompetensiyaviy yo‘nalishini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Astin A.W. Student Involvement: A Developmental Theory for Higher Education // Journal of College Student Personnel. – 1984. – Vol. 25, № 4. – P. 297–308.

2. Deci E.L., Ryan R.M. The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // Psychological Inquiry. – 2000. – Vol. 11, № 4. – P. 227–268. DOI: 10.1207/S15327965PLI1104_01.

3. Edmondson A. Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams // Administrative Science Quarterly. – 1999. – Vol. 44, № 2. – P. 350–383. DOI: 10.2307/2666999.

4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. – 256 p.

5. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p. DOI: 10.1017/CBO9780511815355.

6. Новикова Л.И. Педагогика воспитания: избранные педагогические труды / сост. Е.И. Соколова; под ред. Н.Л. Селивановой, А.В. Мудрика. – М.: ПЕР СЭ, 2010. – 335 с.

7. Степанов Е.Н., Лузина Л.М. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТЦ Сфера, 2008.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Xolmuminova Oygul Jumayevna,
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi professori v/b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi – innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘quvchilar motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va akademik natijalariga ta’sirini aniqlashdan iborat. Adabiyotlar tahlili, qiyosiy va tavsifiy metodlar asosida olingan natijalar innovatsion yondashuvlarning ta’lim sifatini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida ushbu texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari va muammolari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, raqamli ta’lim, STEAM, motivatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

В статье исследуется эффективность использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе. Цель исследования – определить влияние инновационных педагогических технологий на мотивацию учащихся, самостоятельное мышление и академические результаты. Результаты, полученные на основе анализа литературы, сравнительного и описательного методов, подтверждают эффективность инновационных подходов в повышении качества образования. В статье также освещены возможности и проблемы внедрения данных технологий в условиях системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: *инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, эффективность образования, цифровое образование, STEAM, мотивация, личностно-ориентированное обучение.*

EFFECTIVENESS OF USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

This article examines the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the educational process. The aim of the study is to determine the impact of innovative pedagogical technologies on students' motivation, independent thinking and academic results. The results obtained on the basis of literature analysis, comparative and descriptive methods confirm the effectiveness of innovative approaches in improving the quality of education. The article also highlights the opportunities and problems of introducing these technologies in the conditions of the education system of Uzbekistan.

Keywords: *innovative pedagogical technologies, interactive methods, educational effectiveness, digital education, STEAM, motivation, student-centered learning.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarni XXI asr talablariga javob beradigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bilan qurollantirishdir. Globallashuv, raqamli transformatsiya va tezkor ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida an’anaviy ta’lim usullari o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Shu bois ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi hamda Prezident farmon va qarorlarida ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchi mahoratini yuksaltirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish masalalari alohida ta’kidlab o‘tilgan. Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va ularni raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan ta’lim tizimlarida o‘quvchilarning akademik natijalari, motivatsiyasi va ijtimoiy ko‘nikmalari an’anaviy

yondashuvlarga qaraganda yuqori bo‘ladi. Xususan, OECD va UNESCO tadqiqotlari interfaol va faol o‘qitish metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni davom etmoqda, biroq ularning samaradorligini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va yechim yo‘llarini ishlab chiqish hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois ushbu mavzu ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘quvchilar motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va akademik natijalariga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: innovatsion pedagogik texnologiyalar tushunchasi va mohiyatini ochib berish; mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; innovatsion texnologiyalarning asosiy turlarini tavsiflash; ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini aniqlash; O‘zbekiston sharoitida joriy etish muammolarini va yechim yo‘llarini asoslash.

Tadqiqot obyekti – ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni. Tadqiqot predmeti – innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri va uni oshirish omillari.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Innovatsion pedagogik texnologiyalar masalasi pedagogika fanida keng o‘rganilgan. YUNESKO ta’rifiga ko‘ra, pedagogik texnologiya – butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ta’lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi, texnik hamda inson resurslari va ularning o‘zaro aloqasini hisobga olgan holda yaratilgan tizimdir. Innovatsionlik esa ushbu tizimga yangilik, o‘zgarish va takomillashtirish elementlarini kiritishni anglatadi.

Mahalliy olimlardan R.Mavlonova, N.Voxidova pedagogika nazariyasi va tarixi doirasida pedagogik texnologiyalarning mohiyatini ochib berganlar. X.Ibragimov va Sh.Abdullayeva pedagogik jarayonni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaganlar. D.Xolmatova ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini o‘rganib, ularning o‘quvchilar motivatsiyasi va akademik natijalariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

A.K.Ahmedov innovatsion texnologiyalarning didaktik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning interaktivlik, individuallashtirish va vizuallashtirish imkoniyatlarini ta’kidlagan. O.T.Murodov innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan va ularning ta’lim sifati bilan bog‘liqligini asoslagan. Sh.O.Boymirzayeva innovatsion metodlarning o‘quvchilar faolligini oshirishdagi rolini yoritgan.

Xorijiy tadqiqotlarda ham ushbu mavzu keng yoritilgan. Freeman va boshqalar (2014) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlil STEM fanlarida faol o‘qitish an’anaviy ma’ruzalarga nisbatan muvaffaqiyatsizlik darajasini sezilarli kamaytirishini va imtihon natijalarini yaxshilashini ko‘rsatgan. Hattie (2009) «Visible Learning» asarida interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ta’lim samaradorligiga yuqori ta’sir koeffitsientiga ega ekanligini isbotlagan.

OECD (2015) PISA natijalari asosida raqamli texnologiyalarning ta’limga ta’siri aralash ekanligini, biroq ular pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilganda samarali bo‘lishini qayd etgan. UNESCO hujjatlarida innovatsion pedagogik yondashuvlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va akademik natijalarni yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarning kompleks samaradorligini empirik jihatdan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalasi hali yetarli darajada yechimini topmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Shuningdek, so‘nggi yillarda chop etilgan maqolalarda (Ibaydayeva va boshq., 2023; Xurramova, 2026) innovatsion texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi va ularning dars samaradorligiga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Bu ishlar ushbu tadqiqot uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanilgan:

1. Nazariy tahlil metodi – innovatsion pedagogik texnologiyalar tushunchasi, mohiyati va turlari bo‘yicha ilmiy manbalarni o‘rganish va tizimlashtirish.

2. Qiyosiy tahlil metodi – an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini solishtirish, mahalliy va xorijiy tadqiqot natijalarini qiyoslash.

3. Tavsifiy metod – innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, xususiyatlari va qo‘llanish sohalarini tavsiflash.

4. Umumlashtirish va xulosa chiqarish metodi – olingan ma’lumotlar asosida umumiy xulosalar shakllantirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, OECD, UNESCO hisobotlari hamda meta-tahlil natijalaridan foydalanilgan. Tahlil jarayonida innovatsion texnologiyalarning o‘quvchilar motivatsiyasi, faolligi, mustaqil fikrlashi va akademik natijalariga ta’siri mezon sifatida qabul qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi – innovatsion pedagogik texnologiyalarning O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida qo‘llanilish xususiyatlarini tizimli tahlil qilish, ularning samaradorlik mezonlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar majmui innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ko‘p qirrali tahlil qilish imkonini berdi. Nazariy tahlil tushunchalarni aniqlashtirdi, qiyosiy tahlil farqlarni ochib berdi, tavsifiy metod esa amaliy qo‘llanish xususiyatlarini yoritdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik texnologiyalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi va ularning har biri o‘ziga xos samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega:

Interfaol ta’lim texnologiyalari. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Venn diagrammasi”, “Blits-so‘rov”, “Rolli o‘yinlar”, “Debat”, “Keys-stadi” kabi metodlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning motivatsiyasi 25–40 foizgacha oshadi. Interfaol metodlar nutqiy faollikni rivojlantiradi, tinglash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. O‘quvchilar oldiga muammo qo‘yiladi va ular uni mustaqil yoki guruhda hal qilishga undaladi. Bu usul tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli ta’lim konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi va o‘quvchilarni izlanish faoliyatiga jalb qiladi.

Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning). O‘quvchilar real hayotiy muammolarni o‘rganib, loyiha shaklida yechim ishlab chiqadilar. Bu yondashuv amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda va mas’uliyat hissini oshirishda samarali hisoblanadi. Loyiha ishlari orqali rejalashtirish, tadqiqot olib borish, natijalarni taqdim etish ko‘nikmalari shakllanadi.

STEAM yondashuvi. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy va texnik tafakkurini uyg‘un rivojlantiradi. O‘zbekistonda STEAM markazlari tashkil etilib, ushbu yondashuv keng joriy etilmoqda.

Raqamli va multimedia texnologiyalari. Elektron doskalar, multimedia taqdimotlari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar ta’lim jarayonini individuallashtirish va vizuallashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, multimedia vositalaridan foydalanish o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini 15–30 foizgacha oshiradi.

Differensial va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ta’lim berish o‘zlashtirishdagi farqlarni kamaytirishga yordam beradi.

Gamifikatsiya va flipped classroom. O‘yin elementlarini ta’limga kiritish motivatsiyani oshiradi. Teskari sinf modelida o‘quvchilar materialni uyda o‘zlashtirib, darsda amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadilar, bu dars vaqtini samaraliroq ishlatishga imkon beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, akademik natijalar. Interfaol va innovatsion metodlar qo‘llanilgan tajriba guruhlarida o‘quvchilarning natijalari nazorat guruhiga nisbatan 15–30 foizgacha yuqori bo‘ladi. Freeman va boshqalar (2014) meta-tahlili faol o‘qitishning muvaffaqiyatsizlik darajasini kamaytirishini tasdiqlagan.

Ikkinchidan, motivatsiya va faollik. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 80–85 foizi innovatsion metodlarni qiziqarli deb baholaydi va darslarda faol ishtirok etishga intiladi.

Uchinchidan, mustaqil va tanqidiy fikrlash. Loyihaviy va muammoli ta’lim sharoitida o‘quvchilar axborotni topish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va uni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

To‘rtinchidan, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi, o‘quvchi esa faol ishtirokchi sifatida ishtirok etadi. Bu pedagogik jarayonning demokratik xarakterini kuchaytiradi.

Beshinchidan, individuallashtirish. Raqamli texnologiyalar ta’limni individual ehtiyojlarga moslashtirish, masofaviy va aralash ta’lim shakllarini joriy etish imkonini beradi.

Muhokama. Olingan natijalar mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan mos keladi. D.Xolmatova, A.K.Ahmedov, O.T.Murodov ishlarida ham innovatsion texnologiyalarning motivatsiya va akademik

natijalarga ijobiy ta’siri ta’kidlangan. Freeman (2014) va Hattie (2009) tadqiqotlari faol va interfaol yondashuvlarning samaradorligini empirik jihatdan isbotlagan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjud: ayrim o‘qituvchilarning innovatsion metodlarga tayyorgarligi yetarli emasligi; texnik ta’minotning notekisligi (ayniqsa, qishloq maktablarida); metodik qo‘llanmalarning yetarli emasligi; baholash tizimining innovatsion yondashuvlarga to‘liq mos kelmasligi; internet va raqamli infratuzilmaning ayrim hududlarda cheklanganligi.

Bu muammolar innovatsiyalarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda. OECD tadqiqotlari ham raqamli texnologiyalarning samarasi ularning pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, texnologiya o‘zi emas, balki uni qanday qo‘llash muhim.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda “texnologiya uchun texnologiya” yondashuvidan qochish kerak. Har bir innovatsiya aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos kelishi va o‘qituvchi tomonidan puxta o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim. Aks holda, innovatsiyalar formal xarakter kasb etib, kutilgan samarani bermaydi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalardan yuqori samara olish uchun quyidagi shartlar zarur:

– o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va raqamli savodxonligini oshirish;
– mavzu va o‘quvchilar xususiyatlariga mos metod tanlash;
– texnik vositalardan maqsadli (didaktik asoslangan) foydalanish;
– innovatsiyalarni bosqichma-bosqich, tajriba-sinov asosida joriy etish;
– baholash tizimini formativ va alternativ usullar bilan boyitish;
– o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish va professional o‘quv jamoalarini rivojlantirish;
– ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash.

Shunday qilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirishda kuchli salohiyatga ega, biroq ularning muvaffaqiyati o‘qituvchi tayyorgarligi, texnik ta’minot, metodik ta’minot va tizimli yondashuvga bog‘liq.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining muhim va zaruriy sharti hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatlarni yuzaga chiqaradi hamda akademik natijalarni yaxshilaydi.

Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi faoliyatini tubdan o‘zgartiradi: o‘qituvchi bilim beruvchidan yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va hamkorga aylanadi. Bu pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, texnik va metodik ta’minot, baholash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Kelgusida innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va ta’lim sifatini monitoring qilish tizimini takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantirish va milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari va qarorlari.
3. Mavlonova R., Voxidova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2010.
4. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2008.
5. Xolmatova D. Ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish // CyberLeninka, 2023.
6. Ahmedov A.K. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik xususiyatlari // Modern Science and Research, 2026.
7. Murodov O.T. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy prinsiplari. – Buxoro, 2025.
8. Boymirzayeva Sh.O. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar // CyberLeninka.
9. OECD. PISA 2015 Results. Students, Computers and Learning. – Paris: OECD Publishing, 2015.

10. Freeman S. et al. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences, 2014. Vol. 111, No. 23.

11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

12. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – Routledge, 2009.

13. Ибайдаева М.А. и др. Эффективность применения инновационных педагогических технологий в учебном процессе // Образование, наука и инновационные идеи в мире, 2023.

14. Xurramova D.B. Zamonaviy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2026.

UO‘K 742.1

ELEKTRON RESURSLAR TIZIMI VOSITASIDA TALABALARNING CHIZMACHILIK FANIDAN GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Bo‘riboyeva Dilraboxon Norboy qizi,
Guliston davlat universiteti
Amaliy san’at va dizayn kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dilraboboriboyeva@gmail.com

Mazkur maqolada elektron resurslar tizimi vositasida talabalarning chizmachilik fanidan grafik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullari hamda ularning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, elektron ta’lim resurslari yordamida talabalarning fazoviy tasavvuri, grafik tafakkuri, chizmalarni o‘qish va bajarish ko‘nikmalari hamda mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Elektron resurslardan maqsadli foydalanish orqali chizmachilik fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning ijodiy faolligini kuchaytirish va grafik kompetentligini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik yondashuvlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron ta’lim resurslari, chizmachilik, grafik kompetentlik, raqamli texnologiyalar, grafik tafakkur, fazoviy tasavvur, kasbiy kompetentlik, tamoyil, mezon.*

РАЗВИТИЕ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО ДИСЦИПЛИНЕ “ЧЕРЧЕНИЕ” С ПОМОЩЬЮ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ

В данной статье освещаются педагогические возможности развития графической компетентности студентов по дисциплине “Черчение” посредством системы электронных ресурсов, методы эффективного использования цифровых технологий в образовательном процессе и их значение для повышения качества образования. Кроме того, проанализированы вопросы развития у студентов пространственного воображения, графического мышления, навыков чтения и выполнения чертежей, а также компетенций самостоятельного обучения с помощью электронных образовательных ресурсов. Обоснованы научно-методические подходы к повышению эффективности преподавания черчения, активизации творческой деятельности студентов и совершенствованию их графической компетентности за счёт целенаправленного использования электронных ресурсов.

Ключевые слова: *электронные образовательные ресурсы, черчение, графическая компетентность, цифровые технологии, графическое мышление, пространственное воображение, профессиональная компетентность, принцип, критерий.*

DEVELOPING STUDENTS' GRAPHIC COMPETENCE IN TECHNICAL DRAWING THROUGH AN ELECTRONIC RESOURCE SYSTEM

This article explores the pedagogical potential of an electronic resource system for developing students' graphic competence in technical drawing. It also examines methods for effectively integrating digital technologies into the educational process and their role in improving the quality of education. Furthermore, the paper analyzes how electronic educational resources can be used to foster students' spatial imagination, graphic thinking, independent learning competencies, and skills in reading and executing drawings. Finally, it substantiates scientific and methodological approaches to increasing the effectiveness of teaching technical drawing, boosting students' creative engagement, and enhancing their graphic competence through the targeted use of electronic resources.

Keywords: *electronic educational resources, technical drawing, graphic competence, digital technologies, graphic thinking, spatial imagination, professional competence, principle, criterion.*

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, AKT bilan samarali ishlash ko‘nikmalari va grafik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion metodik yondashuvlardan kengroq foydalanish, interfaol o‘qitish metodlarini ta’lim jarayoniga

tatbiq etish, talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishning modernizatsiyalashgan elektron resurslar tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda mehnat bozorini raqobatbardosh kadrlar yetkazib beradigan tizimga aylantirish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv uslubiy jarayonlarni tashkil etish. Ta’lim tizimi rivojlangan xorijiy davlatlarda malaka oshirishlariga keng imkoniyatlar ochib berishning me’moriy ashyolari yaratilmoqda. “O‘zbekiston-2023” strategiyasida “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy texnik ta’minotini mustahkamlash” [1] masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Natijada bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik faoliyatida kasbiy tayyorgarlik darajasini va grafik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. “Kompetentlik” tushunchasining mazmuni va mohiyatini o‘rganish unga nisbatan bir nechta izohlarning mavjudligini ko‘rsatdi. “Kompetentlik” tushunchasi turli fan sohalaridagi olimlar tomonidan qo‘llaniladi.

Grafik kompetensiya - chizmachilik standartlari va qoidalari, ularni amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalari hamda turli grafik dasturlar yoki grafik paketlar bilan ishlash darajasini bilishga qaratilgan fazoviy fikrlash jarayonlari bilan bog‘lik intelektual faoliyatdir.

Yaqin xorijiy mamlakatlarda grafik kompetentlikni tadqiq etishga, uning mutaxassis qiyofasidagi aks etishiga hamda bo‘lajak mutaxassislarda mazkur sifatni shakllantirish va izchil rivojlantirish muammosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Grafik kompetentlik zamonaviy mutaxassisning professional faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi asosiy sifatlardan biri hisoblanadi. U o‘quv jarayonida olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, turli xil ma’lumotlarni vizuallashtirish, interaktiv grafik vositalardan samarali foydalanish va kreativ g‘oyalarni ifodalash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Xususan, E.P.Vox [2], G.A.Galenyuk, S.V. Jilich [3], G.M.Klochkova [4], T.K. Musalimov [5], T.P.Petlina [6], A.V.Petuxova [7], N.V.Fedotova [8] kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tadqiqot obyekti etib “grafik kompetentlik”, “grafik-konstruktorlik kompetentligi” kabi tushunchalarning nazariy talqinini aniqlash, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarda mazkur kompetentlikni samarali rivojlantirish jarayonlari qabul qilingan.

N.V.Fedotovaning ishida “grafik kompetentlik” tushunchasi quyidagicha ta’riflangan: bo‘lajak texnik mutaxassisning kasbiy yo‘nalishida kamolotga erishib borishini hamda maxsus bilimlarga, grafikaviy malaka, amaliy ko‘nikmalarni yorituvchi shaxsiy xususiyat bo‘lib, u axborotlashgan jamiyatda kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi kuchli raqobatga asoslangan muhitda konstruktorlik-loyihaviy faoliyatni tashkil etishga turtki beruvchi kuchli ishtiyoq va keng tafakkurga egalikni, sohaga taalluqli yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorlikni yoritishga xizmat qiladi [8].

E.P.Vox grafik kompetentlik asosini tashkil etuvchi kompetensiyalar, ularning mohiyatini o‘rgangan. Muallif ushbu kompetensiyalar quyidagilar ekanligiga ishonch bildirgan: qo‘llashga oid bilimlar, egallangan ko‘nikma, malakalar, shuningdek, konstruktorlik hujjatlarini erkin yuritish, ular bilan ishlashda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga egalik hamda ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishni ifodalovchi umumlashgan harakat usullarini e’tirof etadi [2].

G.A.Galenyuk, S.V.Jilichlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda ko‘rsatilishicha, grafik kompetentlik deganda, o‘quv mashg‘ulotlari va mustaqil ish jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni amaliyotda qo‘llash bilan birga, muvaffaqiyatli geometrik modellashtirishni amalga oshirish va mashina hamda mexanizmlarning grafik ishlanmalarini samarali ishlab chiqishga xizmat qiluvchi shaxsiy sifatlar majmuasi tushuniladi [3], [9].

S.V.Jilich va G.A.Galenyuklarning e’tirofiga ko‘ra, grafik fanlar talablarda grafik va kasbiy kompetentlikni texnik yo‘nalishdagi fanlarning izchilligi asosida nazariy hamda amaliy bilimlar asoslari (mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashina detallari, kurs ishi va diplom loyihalarini bajarish uchun maxsus fanlar)ni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarni shakllantira olishi zarur [9].

Tahlil va olingan natijalar. Elektron resurslar tizimi elektron ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muhimligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quv kurslarini loyihalashning samarali usullarini ishlab chiqish lozim. An’anaviy ta’limga nisbatan elektron ta’lim muhitidan foydalanish kasbiy kompetentlikning kognitiv, aksiologik, motivatsion-qadriyatli va reflektor-baholash kabi komponentlarini rivojlantirish darajasini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishga olib keladi. Mazkur yondashuvning samaradorligi aynan shu omillar bilan asoslanadi. Grafik tizimlarning imkoniyatlarini kompetensiya indikatorlariga moslashtirish ta’lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish va talabaning individual o‘sish trayektoriyasini monitoring qilish imkonini beradi.

Elektron resurslar tizimidan foydalanib talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos kasbiy kontekst komponentlari mavjud. Tizimning maqsadli komponenti fanlararo integratsion o‘qitish maqsadlarining kasbiy kompetentsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilganligini aks ettiradi. Elektron o‘quv kurslarining jarayon komponenti o‘zida talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ta’limni tashkil etish va professional faoliyatga yo‘naltirilgan usullarni tatbiq etish imkoniyatini mujassam etadi. Ushbu komponent o‘quvchi tayyorgarligini oshirishga qaratilgan o‘qitish vositalari, shakllari hamda metodlarini yagona tizimga birlashtiradi. Baholash komponenti esa kasbiy kompetentlikning funksional jihatlari o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratilgan diagnostik materiallarni o‘z ichiga oladi. Bu materiallar elektron resurslar tizimidan foydalangan holda ta’lim jarayonida talabaning professional kompetentlik darajasining shakllanish dinamikasini obeyktiv ravishda baholashga xizmat qiladi.

Elektron resurslar tizimini rivojlantirishning maqsadi elektron ta’lim muhitidan foydalanib kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdir. Ishlab chiqilgan elektron resurslar tizimining maqsadli komponenti kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar va standartlarni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish hamda mashg‘ulotlarning kasbga yo‘naltirilganligini aks ettiradi: bunda kompetentsiyalarni shakllantirish, kasbiy kompetentsiyani modellashtirish, metakognitiv kompetentsiya, amaliy dasturiy paketlarda va ta’lim saytlarida kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Elektron resurslar tizimini rivojlantirishning jarayonli komponenti talabaning individual funksional jihatlariga asoslangan ta’limni amalga oshira oladigan va kasbiy faoliyatga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim vositalarini, shakllarini va usullarini birlashtiradigan elektron o‘quv kursini o‘z ichiga oladi.

Elektron resurslar tizimiga asoslangan o‘quv kursida talabalar grafik kompetentligining komponentlarini elektron resurslar orqali faollashtirish va rivojlantirishga imkon beruvchi jarayon ishlashning asosiy tamoyillarini ko‘rib chiqamiz:

- maqsadlilik tamoyili-talabalarning ta’lim jarayonida maqsadli idrokini rivojlantirish;
- mazmunning o‘zgaruvchanligi va dolzarbligi tamoyili- ta’lim mazmuni turli shakllariga ega bo‘lib, talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirish doirasida uning mazmuni talabalar uchun dolzarb hisoblanadi;
- davriylik tamoyili-taqdimotning turli shaklida taqdim etilgan o‘rganilayotgan mavzu materialiga avtomatlashtirilgan holda qaytish;
- individuallashtirish tamoyili-ta’lim jarayonini elektron muhitda individuallashtirishni ta’minlash, talabaga individual ta’lim traektoriyasini qurish va o‘quv materiallarining individual makonini rivojlantirish imkonini beradi.

Ushbu tamoyillar elektron resurslar tizimidan foydalanib, olib borilayotgan ishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi hamda ta’lim tizimining diqqat-e’tiborini talabaga qaratgan holda shaxsga yo‘naltirilgan funksional jihatlarga yondashuv asosida ta’limni oshirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan elektron resurslar tizimi taklif etilgan tamoyillar va ta’limni boshqaruv tizimlari funksional imkoniyatlaridan foydalanish hamda elektron resurslar orqali faollashtirish asosida nazariy materiallardan foydalanib ta’limni tashkil etish talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirish imkonini beradi [10].

Pedagogik, psixologik, falsafiy va ilmiy adabiyotlar tahlili elektron resurslar tizimidan foydalanib ta’lim berishning quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- individual xususiyatlarni hisobga olish mezonlari-elektron resurslar tizimidan foydalanish jarayonida talabalarning funksional jihatlari, individual xususiyatlarini hisobga olish va nazariy materiallarni o‘zlashtirish darajasiga, motivatsiya darajasiga va elektron resurslar tizimidan foydalana olishdagi faollik darajasiga qarab grafik kompetentlikni rivojlanishini ta’minlanishi;
- rivojlanish mezoni-elektron resurslar tizimi ta’lim olishda aqliy qobiliyatning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, kasbiy rivojlanganlik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi, ularning kasbiy faoliyat jarayonida qo‘llanilishiga e’tibor qaratiladi;
- ta’lim jarayonini indensifikatsiyalash mezoni-elektron resurslar tizimidan foydalanishda ta’lim shakllari va bir bosqichdan boshqasiga o‘tish muddatlarini, bosqichlar davomiyligida talabaning bilim salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi;
- teskari aloqa mezoni-elektron resurslar tizimidan foydalanib ta’lim berish asosida talabaga grafik kompetentlikni rivojlantirish muhitidagi joriy va bo‘lajak harakatlar, ularning natijalari va o‘quv faoliyatining har bir qadamidagi sabablari haqida ma’lumot beradi.

Munozara. Elektron resurslar tizimidan foydalanib o‘qitishda o‘quv materialini taqdim etishning shakllaridan biri sifatida kiritilishi zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Bu esa ta’limning an’anaviy shakllarini qisman almashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron resurslar tizimidan foydalanib ta’lim berishda ta’lim metodlaridan tashqari, elektron o‘quv kursi hamda masofaviy ta’lim kabi faol ta’lim usullaridan foydalaniladi. Ta’lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish va o‘qitishning faol usullari mustaqil ishlash uchun kasbiy kompetensiyalar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Ular talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlashga katta ta’sir ko‘rsatadi, talabalarning grafik kompetentligi rivojlanishini ta’minlaydi hamda nazariya va amaliyot uzviyligi tamoyili asosida grafik kompetensiyalar shakllantiriladi.

Elektron resurslar tizimi muhitida amalga oshirilgan ta’lim shakllari: elektron seminar, muammoli ta’lim va elektron ta’lim muhitini tashkil qilish, mustaqil ta’lim. Elektron resurslar tizimi vositasida grafik kompetentlikni rivojlantirish modeli- bu shunchaki dasturlarni o‘rgatish emas, balki talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini raqamli muhitda yaxlit tizimga solishdir.

Elektron seminar -elektron resurslar tizimining elementi bo‘lib, unda har bir talaba nafaqat guruh ishining individual yoki bir qismini bajaradi, balki boshqa talabalar ishining natijalarini baholaydi. Elektron resurslar tizimi muhitida o‘qitish asosan loyihalar, muammoli ta’lim elementlari elektron seminar orqali amalga oshiriladi. Elektron seminar metakognitiv kompetentlikni, xususan, kasbiy kompetentlikning refleksiv-baholovchi komponentini rivojlantirishga ko‘maklashadi, aytib o‘tilgan mezonlarga muvofiq boshqa talabalar ishini adaptiv samaradorligini natijaviy baholash ko‘nikmalarini o‘zaro o‘rganish va qo‘llash metodidan foydalanadi. Elektron vebinar uchun yakuniy baholash nafaqat mustaqil bajarilgan ishning sifatini hisobga oladi.

Elektron seminarda faoliyatni baholash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- kasbiy muammoli masalalarni yechishda erkin muhokamadan foydalaniladi va aniq baholash mezonlarini shakllantirish qiyin bo‘lgan ishlarga tatbiq etiladi. O‘z fikrini erkin shaklda tavsiyalar, takliflar, dalillar shaklida ifoda etishni o‘z ichiga oladi;
- o‘qituvchi tomonidan belgilangan mezonlar asosida taqdim etilgan materiallar asosli izoh orqali amalga oshiriladi;
- bir-birini baholash o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan yoki forumdagi muhokama davomida birgalikda ishlab chiqilgan mezonlariga muvofiq ularning ta’sirchanlik omillari tufayli ballar to‘plashni o‘z ichiga oladi.

Elektron resurslar tizimi asosidagi o‘quv kursida talabalarning grafik kompetentligi rivojlantirish uchun “elektron seminar” elementi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ta’lim vazifalari ishlab chiqiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun mavjud elektron resurslar tizimi ta’minoti turli xil bo‘lib, quyidagi ish turlarini bajarish imkonini beradi: tadqiqotlar olib borish, grafikli loyihalarni ishlab chiqish va tahlil qilish, modellashtirish va vizuallashtirish tajribalarini o‘tkazish, ma’lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va yaratilgan grafik mahsulotni muhokama qilish.

1-jadval.

Talabalarning muhandislik faniga oid grafik kompetentligini rivojlantirishda elektron resurslar tizimi va uning imkoniyatlarini ifodalovchi SWOT tahlili

S-kuchli tomoni.	**W-kuchsiz tomoni.**
Elektron resurslar tizimi muhitida grafik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida turli faoliyat turlari va shakllarining doimiy o‘zgarishi; mustaqil ta’lim; o‘z-o‘zini baholash; o‘zaro baholash; konferensiyalarda muhokama qilish; talabalarning elektron resurslar tizimi muhitidagi faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.	O‘qituvchi bilan doimiy muloqotda bo‘lmaslik, talabalar o‘zlarining to‘liq imkoniyatlarini ko‘rsata olmasligi.
O-imkoniyatlari.	**T-xavf-xatarlar.**
Elektron resurslar tizimidan, elektron ta’lim imkoniyatlaridan, multimedia, masofadan o‘qitish va ilg‘or texnologiyadan foydalanish; chizmachilik fanini o‘qitishda ijodiy vazifalarni tanlash orqali talabalarning bilimini oshirish va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanishni ta’minlash, chizmachilik fanining informatsion va axboroti-didaktik ta’minotni rivojlantirish.	Xorijiy tillarni mukammal bilish; kompyuterning turli amaliy dasturlaridan to‘laqonli foydalana bilmaslik; Ba’zi kompyuter dasturlariga cheklovlarning qo‘yilishi va boshqalar.

Elektron resurslar tizimi muhitida grafik kompetentlikni rivojlantirish avtomatlashtirilgan testlarni yechish, elektron seminarda mustaqil topshiriqlarni bajarish, shuningdek, bosqichli vazifalarni yechish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsadni moslashtirish bilan amalga oshiriladi.

Elektron resurslar tizimi muhitida grafik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida turli faoliyat turlari va shakllarining doimiy o‘zgarishi kuzatiladi: mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, konferensiyalarda muhokama qilish, bu esa talabalarning elektron resurslar tizimi muhitidagi faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

Talabalarning elektron resurslar tizimi muhitidan foydalanib grafik kompetentligini rivojlantirish jarayonining pedagogik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

-elektron resurslar tizimidan, elektron ta’lim imkoniyatlaridan, multimedia, masofadan o‘qitish va ilg‘or texnologiyadan, operatsion-faoliyatning didaktik va raqamli resurslar tizimidan foydalanib, integratsiya qila olish;

-chizmachilik fanini o‘qitishda ijodiy vazifalarni tanlash orqali vizual aniqlikda maqsadni moslashtirish bilan talabalarning bilimini oshirish va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanishni ta’minlash;

-chizmachilik fanining informatsion va axboroti-didaktik ta’minotni rivojlantirish.

Elektron resurslar tizimi muhitida chizmachilik fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonini tashkil etishda muammoli masalalar yaratish va ularni yechishda elektron resurslar tizimi vositalarini qo‘llash quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshiradi:

- talaba o‘z diqqatini muammoli masalani yechimiga jalb qiladi, undagi bilish va bajarish havasini hamda grafik chizmalar orqali operatsion-faoliyatini va tezligini boshqa qirralarini uyg‘otadi;
- amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talaba muammoli masalalarni yechishda elektron resurslar tizimi vositalarini qo‘llash davomida uchraydigan ayrim murakkabliklarni va qiyinchilikni yengishi barobarida mustaqil fikrlashga va grafik faoliyatini faollashuvi bilan didaktik va raqamli resurslar tizimini boshqara olishga erishadi;
- talaba oldida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida muammoli masalalarni yechishda elektron resurslar tizimi vositalarni qo‘llash davomida paydo bo‘lgan bilishga doir talab bilan mazkur talabni mavjud nazariy bilim zaxirasi, amaliy ko‘nikma va malakalar vositasida amalga oshirish imkoni yo‘qligi o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qiladi;
- talabaning vujudga kelgan murakkabliklardan qutulish yo‘llarini izlab topish rejasini belgilaydi va uni faol integrativ izlanuvchan grafik faoliyatga undaydi.

Xulosa. Elektron resurslar tizimidan foydalanish natijasida talabalarning ijodkorlik, mohirlik, konstruktorlik, texnologik, tadqiqotchilik, dizaynerlik, ratsionalizatorlik, ixtirochilik, refleksiv-diagnostika, kommunikativlik, vizualizatorlik va operatsion faoliyatini boshqa grafik elementlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib, elektron resurslar tizimiga asoslangan ta’lim muhitida talabalarning psixofiziologik xususiyatlari, didaktik va raqamli resurslar tizimidan foydalana olish sifatlarini hisobga olish, tahsil jarayoni subyektlarining hamkorlik atmosferasi va o‘zaro muloqotini ta’minlash imkoni bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Vox E.P. Mustaqil kongnitiv faoliaytda kelajakdagi muhandislarda grafik kompetensiyalarni shakllantirish: dis. …kand. ped. n. – Yekaterinburg; 2008. – 189

2. Галенюк Г.А., Жилич С.В., Быкова О.С. Окружающая среда и её роль в профессиональном формировании агроинженера // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научю-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 82-83.

3. Klochkova G.M. Texnologik ta’lim talabalarining grafik dizayn kompetensiyasining tarkibiy qismlari va darajalarini ajratish // https://www.science-education.ru/ru/article/viev?id=11988.

4. Musalimov T.K., Alijan A., Bekisheva A.D. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi sinflarida talabalarning grafik kompetensiyasini shakllantirish muammosini o‘rganish. http://kazatu.kz/assets/i/science/sf13_shmash_121.pdf.

5. Petlina T.P. Umumiy texnik tayyorgarlik jarayonida agroinjineriya mutaxassisliklari talabalarida muhandislik-grafik malakalarini shakllantirish; dis. ped. n. – Samara: 2007. – S. 33-37

6. Petuxova A.V.. Universitetning kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim muhitida talabalarning muhandislik va grafik tayyorgarligi: dis. …kand. ped. n. Novosibirisk: 2009.- 186 s.

7. Fedotova N.V. Texnik universitet talabalarining uch o‘lchovli modellashtirish asosida grafik kompetentsiyasini shakllantirish: dis. ... kand. ped. n. - Tambov, 2011. - 180 b.

8. Жилич С.В., Галенюк Г.А. Эффективность применения интерактивных методов обучения на занятиях по инженерной графике // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научю-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 124-125.

9. Bo‘riboyeva D.N Talabalarning grafik kompetentligini rivojlantirishning elektron resurslar tizimini takomillashtirish metodikasi. pedagogika fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. OAK ro‘yxat raqami B2023.4.PhD/Ped6332

10.Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. “Development of students'graphic competence using interactive methods.” // Current research journal of pedagogics 5.02 (2024): 44-47.

UO‘K 371.13:378.147

DUAL TA’LIM JARAYONIDA KONSTRUKTIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI MAZMUNI VA METODLARI

Odilova Mavluda Uchqun qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti, Termiz, O‘zbekiston
odilovamavluda@784gmail.com

Maqolada dual ta’lim jarayonida talabalarda konstruktiv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning mazmuni va metodlari tadqiq etilgan. Konstruktiv kompetentlikning kognitiv, operatsion-amaliy, ijodiy-konstruktiv va refleksiv komponentlari tavsiflangan. Loyihaviy ta’lim, keys-stadi, modul texnologiyasi, ishlab chiqarish topshiriqlari, mentorlik va simulyatsion mashqlarning imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni bosqichma-bosqich joriy etishning metodik modeli va pedagogik shart-sharoitlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *dual ta’lim, konstruktiv kompetentlik, pedagogik texnologiya, loyihaviy ta’lim, keys-stadi, modul texnologiyasi, mentorlik, refleksiv baholash.*

СОДЕРЖАНИЕ И МЕТОДЫ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ КОНСТРУКТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

В статье исследуются содержание и методы педагогических технологий, направленных на развитие конструктивной компетентности студентов в процессе дуального образования. Охарактеризованы когнитивный, операционно-практический, творческо-конструктивный и рефлексивный компоненты конструктивной компетентности. Проанализированы возможности проектного обучения, кейс-стади, модульной технологии, производственных заданий, наставничества и симуляционных упражнений. Предложены методическая модель поэтапного внедрения данных технологий и педагогические условия их эффективной реализации.

Ключевые слова: *дуальное образование, конструктивная компетентность, педагогическая технология, проектное обучение, кейс-стади, модульная технология, наставничество, рефлексивное оценивание.*

CONTENT AND METHODS OF TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING CONSTRUCTIVE COMPETENCE IN THE DUAL EDUCATION PROCESS

The article examines the content and methods of pedagogical technologies aimed at developing students’ constructive competence in the dual education process. The cognitive, operational-practical, creative-constructive, and reflective components of constructive competence are described. The potential of project-based learning, case studies, modular technology, production tasks, mentoring, and simulation exercises is analyzed. A methodological model for the gradual implementation of these technologies and the pedagogical conditions necessary for their effective application are proposed.

Keywords: *dual education, constructive competence, pedagogical technology, project-based learning, case study, modular technology, mentoring, reflective assessment.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri kasbiy ta’limni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash, bitiruvchilarda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda erkin va ijodiy qo‘llash qobiliyatini shakllantirishdir. Bu vazifani hal etishning samarali vositasi ta’lim muassasasidagi nazariy tayyorgarlikni korxonadagi amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi dual ta’lim tizimidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-son hamda 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarorlari bilan kasbiy va oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari belgilangan [1; 2].

Dual ta’lim sharoitida talabadan bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularni mustaqil qo‘llash va kasbiy-texnologik muammolarni ijodiy hal etish talab qilinadi. Bu qobiliyat “konstruktiv kompetentlik” tushunchasi orqali ifodalanadi: u shaxsning egallagan bilim va ko‘nikmalari asosida notanish yoki murakkablashgan kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, amaliy yyechim loyihalashtirish va uni izchil amalga oshirish qobiliyatidir. An’anaviy texnologiyalar nazariy bilimni yaxshi shakllantirgani holda, talabalarning

amaliy-konstruktiv faoliyatga tayyorligini yetarli ta’minlay olmaydi. “Sanoat 4.0” va raqamli transformatsiya sharoitida esa korxonalar texnologik jarayonlarni mustaqil takomillashtira oladigan kadrlarga muhtoj.

Muammoning amaliy ahamiyati shundaki, konstruktiv kompetentligi yetarli rivojlanmagan mutaxassis standartdan tashqari vaziyatda qaror qabul qilishda ikkilanadi va ko‘pincha rahbariyat yoki tajribali hamkasbdan ko‘rsatma kutishga majbur bo‘ladi. O‘zbekistonda to‘qimachilik, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi yetakchi tarmoqlarda dual ta’lim bosqichma-bosqich joriy etilayotgani ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi – dual ta’lim jarayonida konstruktiv kompetentlikni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarning mazmuni va metodlarini ilmiy asoslash hamda ularni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish. **Vazifalar:** konstruktiv kompetentlikning mohiyati va komponentlarini aniqlash; dual ta’limning pedagogik-texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish; tegishli texnologiyalarni tizimlashtirish; ularni joriy etishning metodik modelini ishlab chiqish.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasida (I.A. Zimnyaya, A.V.Xutorskoy) shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligi kalit kompetensiyalar orqali izohlanadi va “faoliyatga asoslangan ta’lim” g‘oyasi ilgari suriladi [3;4]. Biroq bu kompetensiyalar universal xarakterga ega bo‘lib, texnik-texnologik kasblarga xos amaliy-konstruktiv jihatlarni to‘liq ochib bermaydi. V.D.Greynert tadqiqotlarida dual ta’limda asosiy e'tibor ta’lim muassasasi va korxona o‘rtasidagi institutsional hamkorlikka qaratilgan [5]. Mahalliy tadqiqotlarda (B.Sh. Shermuhammadov, B.Q.Qurbonova) dual ta’limning O‘zbekiston kontekstidagi tashkiliy-huquqiy jihatlari yoritilgan [6]. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti J.G‘. Yo‘ldoshev, O‘.Q. Tolipov, B. Berkinov, K. Xoliqberdiyev va boshqalar asarlarida ishlab chiqilgan [8–12].

Germaniyaning dual tizimida o‘quvchi haftaning bir qismini kasb-hunar maktabida, qolgan qismini korxonada o‘tkazadi, korxonadagi ustoz (“Ausbilder”) esa maxsus pedagogik tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘ladi. Shvetsariyada amaliy ta’lim mazmuni milliy kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilib, har bir bosqichda egallanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar profili belgilanadi. Singapurda esa davlat, ta’lim muassasalari va korporatsiyalar o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, korxonalar o‘quv dasturlarini ishlab chiqishning teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi.

Xorijiy tajriba dual ta’lim samaradorligi nazariy va amaliy ta’lim mazmunining aniq muvofiqlashtirilganligiga, korxonadagi ustoz (“Ausbilder”)larning pedagogik tayyorgarligiga hamda davlat–ta’lim–biznes hamkorligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Loyihaviy ta’limning ildizlari esa J. Dyui va V.Kilpatrikning “loyihalar metodi”ga borib taqaladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, dual ta’lim sharoitida konstruktiv kompetentlikni rivojlantirishning aniq texnologik-metodik mexanizmlari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarli o‘rganilmagan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ana shu texnologiyalarni yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish va ularni joriy etishning bosqichli modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obyekti – dual ta’lim shaklida tahsil olayotgan kasbiy va oliy ta’lim talabalarining o‘quv-kasbiy faoliyati; predmeti – ushbu jarayonda konstruktiv kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni, texnologiyalari va metodlari. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni nazariy tahlil qilish, dual ta’lim amaliyotini kuzatish, talabalar va amaliyot rahbarlari (ustoz-mentorlar) bilan suhbat va anketa so‘rovi, o‘quv-amaliy hujjatlarni (topshiriqlar kundaligi, baholash varaqalari) tahlil qilish hamda qiyosiy-tahliliy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi (triangulyatsiya).

Tadqiqotga texnika va texnologiya yo‘nalishidagi kollej va institutlarning dual ta’limdagi o‘nlab talabalari va o‘nga yaqin amaliyot rahbari jalb etildi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: tayyorgarlik bosqichida muammoning nazariy-metodologik asoslari o‘rganilib, kuzatish varaqalari va so‘rovnoma savollari ishlab chiqildi; asosiy bosqichda dual ta’lim amaliyoti o‘rganilib, talabalarning konstruktiv-amaliy faoliyatga tayyorligi aniqlandi; yakuniy bosqichda natijalar umumlashtirilib, metodik model va tavsiyalar shakllantirildi. Konstruktiv kompetentlik darajasi uch darajali mezon asosida baholandi: boshlang‘ich (reproduktiv) – talaba namunaviy topshiriqlarni faqat ustoz ko‘rsatmasi bilan bajaradi; o‘rta (qisman mustaqil) – tanish vaziyatlarda mustaqil harakat qiladi, notanish vaziyatlarda yordamga muhtoj; yuqori (konstruktiv-ijodiy) – murakkab vaziyatlarda ham mustaqil yechim loyihalashtiradi va o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot dual ta’limning konstruktiv kompetentlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratishini ko‘rsatdi: ta’lim ikki muhitda – ta’lim muassasasi va korxonada uzviy tashkil etilgani bois, talaba egallagan nazariy bilimini darhol real ishlab chiqarish vaziyatida sinab ko‘radi va ustoz kuzatuvi ostida mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi. Biroq bu imkoniyat o‘quv dasturlari mazmun va vaqt jihatidan muvofiqlashtirilgan hamda amaliyot rahbarlari pedagogik-metodik jihatdan tayyorlangan taqdirdagina to‘liq ro‘yobga chiqadi. Kuzatilgan muassasalarda ushbu ikki

shart har doim ham bajarilmagani, ayrim hollarda talaba korxonada nazariy jihatdan hali o‘rganilmagan vazifalarni bajarishga majbur bo‘lgani qayd etildi.

Nazariy tahlil asosida konstruktiv kompetentlik tarkibida to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponent ajratildi va har biri uchun yetakchi texnologiyalar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Konstruktiv kompetentlik komponentlari va ularni rivojlantiruvchi texnologiyalar

Komponent	Mazmuni	Rivojlantiruvchi texnologiyalar
Kognitiv	Kasbga oid nazariy bilimlar, texnik-texnologik tushunchalar, me’yoriy hujjatlardan foydalana olish	Modul texnologiyasi, nazariy mashg‘ulotlar
Operatsion-amaliy	Amaliy ko‘nikmalar, asbob-uskuna va dasturiy vositalar bilan ishlash mahorati	Ishlab chiqarish topshiriqlari, simulyatsion mashqlar
Ijodiy-konstruktiv	Notanish vaziyatda bilimlarni yangicha birlashtirib, original yechim loyihalashtirish	Loyihaviy ta’lim, keys-stadi
Refleksiv	O‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish	Mentorlik, fikr-mulohaza suhbatlari, loyiha himoyasi

Komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq: nazariy bilimga ega, ammo amaliy ko‘nikmasi zaif talaba bilimini real vaziyatda qo‘llay olmaydi; aksincha, nazariy asosni bilmagan talaba notanish vaziyatda samarali yechim topa olmaydi. Komponent va texnologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ham bir tomonlama emas: masalan, loyihani himoya qilish jarayoni ijodiy-konstruktiv bilan birga refleksiv komponentni ham rivojlantiradi. Shu sababli texnologiyalar yaxlit tizim sifatida qo‘llanilganda eng yuqori samara beradi.

Texnologiyalarni tanlashda ikki mezonga tayanildi: talabani faol, mustaqil sub'ektga aylantira olishi va real ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liqligi. Loyihaviy ta’lim doirasida talabalar korxonaning real muammosi (masalan, uskuna unumdorligini oshirish) bo‘yicha loyiha ishlab chiqib, mutaxassislar ishtirokida himoya qiladilar. Keys-stadi metodi korxonada yuz bergan nosozlik holatlari sabablarini tahlil qilish va oldini olish choralarini ishlab chiqishga o‘rgatadi. Modul texnologiyasida har bir nazariy modul unga mos amaliy modul bilan bog‘lanadi. Ishlab chiqarish topshiriqlari namunaviydan qisman ijodiy va mustaqil konstruktiv topshiriqlarga qadar bosqichma-bosqich murakkablashtiriladi. Mentorlik ustozning talaba faoliyatini kuzatib, muntazam fikr-mulohaza suhbatlarini o‘tkazishini nazarda tutadi. Simulyatsion mashqlar va virtual simulyatorlar xavfsiz muhitda xato qilishdan qo‘rqmay mashq qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida texnologiyalarni joriy etishning to‘rt bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi: 1) motivatsion-tayyorgarlik – kasbga qiziqish shakllantiriladi, nazariy bilimlar modul asosida beriladi; 2) amaliy-moslashuv – talaba korxonaga biriktirilib, mentor rahbarligida namunaviy topshiriqlarni bajaradi, simulyatsiya va keys-stadidan foydalaniladi; 3) konstruktiv-ijodiy – talaba murakkab muammolarni mustaqil aniqlab, loyiha asosida yechadi va himoya qiladi; 4) refleksiv-baholov – talaba mentor bilan birgalikda o‘z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, shaxsiy rivojlanish rejasini belgilaydi.

Modelning amaldagi ko‘rinishini elektrotexnika yo‘nalishi misolida ko‘rsatish mumkin. Birinchi bosqichda talaba elektr zanjirlari nazariyasini modul tarzida o‘zlashtiradi. Ikkinchi bosqichda u korxonada mentor nazoratida tayyor sxema asosida montaj ishlarini bajaradi va simulyatsion dasturda murakkabroq zanjirlarni yig‘ishni mashq qiladi. Uchinchi bosqichda unga uskunadagi energiya isrofini kamaytirish bo‘yicha mustaqil loyiha topshiriladi. To‘rtinchi bosqichda esa talaba mentor bilan birga duch kelgan qiyinchiliklar va bilimlaridagi bo‘shliqlarni tahlil qilib, keyingi o‘quv davri uchun rivojlanish rejasini tuzadi. Har bir bosqichda bilim sifati, ko‘nikmalar mustahkamligi, mustaqil yechim topish va o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha monitoring olib boriladi.

Uch darajali mezon har bir komponent kesimida aniqlashtirildi. Masalan, ijodiy-konstruktiv komponent bo‘yicha boshlang‘ich darajadagi talaba faqat tayyor andoza bo‘yicha ishlaydi va muqobil yechimlar haqida o‘ylamaydi; o‘rta darajadagi talaba mavjud yechimni qisman takomillashtirish bo‘yicha takliflar bera oladi; yuqori darajadagi talaba esa yangi, original yechimlarni mustaqil loyihalashtirib, muqobil variantlar ichidan eng maqbulini tanlaydi. Operatsion-amaliy komponent bo‘yicha boshlang‘ich darajadagi talaba faqat qadam-baqadam yo‘riqnoma bilan ishlaydi, o‘rta darajadagi talaba tanish vazifalarni vaqti-vaqti bilan maslahat so‘rab bajaradi, yuqori darajadagi talaba esa turli murakkablikdagi vazifalarni to‘liq mustaqil, sifatli va belgilangan muddatda bajaradi hamda notanish uskunani ham tez o‘zlashtiradi. Refleksiv komponent bo‘yicha boshlang‘ich darajadagi talaba o‘z xatosini faqat tashqaridan ko‘rsatilgandan keyin payqaydi, yuqori darajadagi talaba esa xatolarining sabablarini mustaqil aniqlab, ularni takrorlamaslik choralarini belgilaydi. Bunday tavsif pedagog va amaliyot rahbarlariga talabaning joriy holatini aniq diagnostika qilish va unga individual yondashish imkonini beradi.

Kuzatish va suhbatlar ushbu texnologiyalar majmuasini izchil qo‘llagan muassasalarda talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish sifati, kichik texnik muammolarni aniqlash va bartaraf etish qobiliyati hamda o‘z faoliyatini tanqidiy baholash darajasi sezilarli yaxshilanganini ko‘rsatdi. Amaliyot rahbarlari dual ta’limda uzoq muddat ishlagan talabalarning notanish topshiriqlarga faqat auditoriyada tahsil olganlarga nisbatan erkinroq va tashabbuskorona yondashishini qayd etdilar. Texnologiyalardan faqat bir qismini qo‘llash (masalan, mentorlik va refleksiyasiz faqat ishlab chiqarish topshiriqlari) kompetentlikning nomutanosib rivojlanishiga olib kelishi aniqlandi.

Muhokama. Olingan natijalar I.A. Zimnyaya va A.V. Xutorskoyning “faoliyatga asoslangan ta’lim” g‘oyasini operatsion-amaliy va ijodiy-konstruktiv komponentlar orqali aniq amaliy mazmun bilan to‘ldiradi. V.D. Greynert asosiy e’tiborni institutsional hamkorlikka qaratgan bo‘lsa, ushbu tadqiqotda shaxsning ichki rivojlanish mexanizmlari – motivatsiya va refleksiya ham yoritildi. Natijalar texnologiyalarni samarali joriy etish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarurligini ko‘rsatdi: ta’lim muassasasi va korxona o‘quv dasturlarining mazmun va vaqt jihatidan muvofiqlashtirilishi; amaliyot rahbarlarining pedagogik-metodik tayyorgarligini oshirish; yagona baholash mezonlari; talaba, o‘qituvchi va mentor o‘rtasida muntazam teskari aloqa; elektron portfolio orqali individual rivojlanishni kuzatish; xatolarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qiluvchi qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit.

Suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, korxonadagi tajribali mutaxassislar o‘z kasbini yaxshi bilsalar-da, ko‘pincha uni o‘rgatish metodikasiga ega emaslar: ular yo talabaga haddan ortiq ko‘rsatma berib, uning mustaqilligini cheklaydilar, yo yetarli yo‘naltirishsiz qoldiradilar. Shuningdek, talabalar xato qilishdan qo‘rqish, tajribali hamkasblar oldida noqulay ahvolga tushish kabi psixologik to‘siqlarga duch keladi. Shu sababli mentorlar uchun “qanday o‘rgatish va fikr-mulohaza berish kerak” mavzusidagi qisqa muddatli treninglar tashkil etish muhim. Kasb-hunar ta’limida asosiy e'tibor operatsion-amaliy komponentga, oliy ta’limda esa ijodiy-konstruktiv va refleksiv komponentlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: u asosan sifat tahliliga tayanadi, texnika-texnologiya yo‘nalishlari bilan chegaralangan va qisqa davrni qamrab olgan. Raqamli vositalar – VR/AR texnologiyalari va sun'iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimlari – xavfsiz virtual mashq va individual fikr-mulohaza imkonini berib, mentorlik yukini qisman engillashtiradi, ammo jonli mentorlik va real ishlab chiqarish tajribasini almashtira olmaydi, balki ularni to‘ldiradi. Shu bois modelning samaradorligini nazorat va tajriba guruhlari asosidagi pedagogik eksperiment orqali statistik tasdiqlash kelgusi vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Dual ta’lim jarayonida konstruktiv kompetentlikni rivojlantirish nazariy bilim va amaliy faoliyatni uzviy uyg‘unlashtiruvchi pedagogik texnologiyalar tizimini talab etadi. Kognitiv, operatsion-amaliy, ijodiy-konstruktiv va refleksiv komponentlarni muvozanatli rivojlantirish uchun loyihaviy ta’lim, keys-stadi, modul texnologiyasi, ishlab chiqarish topshiriqlari, mentorlik va simulyatsion mashqlarni o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash zarur. Taklif etilgan to‘rt bosqichli metodik model talabalarning mustaqil va ijodiy kasbiy faoliyat yuritish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Dual ta’lim jarayonida konstruktiv kompetentlikni rivojlantirish ko‘p subyektli jarayon bo‘lib, uning samaradorligi talaba, o‘qituvchi, amaliyot rahbari, ta’lim muassasasi va korxona rahbariyatining muvofiqlashtirilgan faoliyatiga bog‘liq. Zamonaviy iqtisodiyot moslashuvchan va mustaqil fikrlaydigan kadrlarni talab qilar ekan, ta’lim tizimi ham tayyor bilimlarni uzatishdan talabada mustaqil konstruktiv faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-son qarori. Professional ta’lim muassasalariga yil davomida o‘quvchilarni dual ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori. Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.

5. Greinert W.-D. The German philosophy of vocational education. – Bonn: InWEnt, 2005.

6. Shermuhammadov B.Sh., Qurbonova B.Q. Dual ta’lim tizimi oliy ta’limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O‘zbekiston konteksti // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2025. – №3. – B. 6–11.

7. Mudrik A.V. Ijtimoiy pedagogika. – M., 2003.

8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

10. Berkinov B. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi. – Toshkent, 2018.

11. Sattorov S., Amonov S. “Pedagogik texnologiya”ning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘rni // O‘zMU xabarlari. ACTA NUUz. – 2024. – №1/6. – B. 173–176.

12. Xoliqberdiyev K. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA AXLOQIY-ESTETIK TARBIYALASH BO‘YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARI

Qodirov Salohiddin Rashid o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti Yakka kurash sport turlari kafedrasi professori
qodirovsalohiddin@21gmail.com

Maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida axloqiy-estetik tarbiyalash bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik model va uning texnologiyasining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, borishi va natijalari yoritilgan. 2023-2025-yillarda uch oliy ta’lim muassasasi negizida 450 nafar talaba ishtirokida uch bosqichli (ta'kidlovchi, shakllantiruvchi, nazorat) tajriba o‘tkazilib, natijalar K.Pirsonning χ^2-mezoni yordamida statistik tahlil qilingan. Olingan natijalar taklif etilgan model tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori pedagogik samara berganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axloqiy-estetik tarbiya, pedagogik model, pedagogik tajriba-sinov, kognitiv mezon, motivatsion-qadriyatli mezon, amaliy-faoliyat mezoni, χ^2-mezoni.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА ПО НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

В статье освещены организация, ход и результаты педагогического эксперимента, проведённого с целью определения практической эффективности разработанных педагогической модели и технологии нравственно-эстетического воспитания будущих учителей физической культуры на основе личностно-ориентированного подхода. В 2023-2025 годах на базе трёх высших учебных заведений с участием 450 студентов был проведён трёхэтапный (констатирующий, формирующий, контрольный) эксперимент, результаты которого подвергнуты статистическому анализу с использованием критерия χ^2 К. Пирсона. Полученные данные показывают, что предложенная модель обеспечила в экспериментальной группе значительно более высокий педагогический эффект по сравнению с контрольной группой.

Ключевые слова: *личностно-ориентированный подход, нравственно-эстетическое воспитание, педагогическая модель, педагогический эксперимент, когнитивный критерий, мотивационно-ценностный критерий, критерий χ^2.*

RESULTS OF THE PEDAGOGICAL EXPERIMENT ON THE MORAL-AESTHETIC EDUCATION OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON A PERSON-CENTERED APPROACH

The article presents the organization, process and results of a pedagogical experiment conducted to determine the practical effectiveness of a pedagogical model and technology for the moral-aesthetic education of future physical education teachers, developed on the basis of a person-centered approach. During 2023-2025, a three-stage (ascertaining, formative, control) experiment involving 450 students was carried out at three higher education institutions, and the results were statistically analyzed using Pearson's χ^2 test. The findings show that the proposed model produced a significantly higher pedagogical effect in the experimental group compared with the control group.

Keywords: *person-centered approach, moral-aesthetic education, pedagogical model, pedagogical experiment, cognitive criterion, motivational-value criterion, χ^2-test.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ta‘lim va tarbiyaning insonparvarlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi tamoyili [1] bo‘lajak pedagog kadrlarni, jumladan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini, yuksak axloqiy-estetik madaniyat egasi sifatida tayyorlashni dolzarb vazifaga aylantiradi. Zamonaviy ta‘lim tizimida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash nafaqat ularning sport-metodik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, balki kasbiy faoliyatida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashni ham taqozo etadi. Amaliyotda qo‘llanilayotgan an’anaviy tarbiyaviy shakl va metodlarning ko‘p hollarda reproduktiv xarakterga ega

ekanligi, talabalarning individual qadriyat yo‘nalishlari va shaxsiy xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmasligi ushbu jarayonni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning mustaqil fikrlashi, individual ehtiyojlari va qadriyatga oid tanlovini e’tirof etadi. C. Rogers va H. Freiberg ta’limda shaxsiy tajriba, erkin ishtirok va qo‘llab-quvvatlovchi muhitning ahamiyatini yoritgan [5]. I.S. Yakimanskaya [6], V.V. Serikov [7] va E.V. Bondarevskaya [8] tadqiqotlarida esa ta’lim oluvchi subyekt sifatida qaralib, uning individual rivojlanish imkoniyatlarini ochish alohida o‘rin egallaydi. Mazkur nazariy qarashlar jismoniy tarbiya pedagoglarini tayyorlashda tarbiyaviy vaziyatlarni talaba tajribasi va refleksiyasi bilan bog‘lash zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilgari surilgan ilmiy farazi quyidagicha edi: agar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini axloqiy-estetik tarbiyalash jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik model, uning bosqichma-bosqich texnologiyasi (diagnostika → kognitiv-nazariy → amaliy-faoliyat → refleksiya) hamda interfaol metodlar (munozara, keys-stadi, rolli o‘yin, axloqiy dilemmalarni muhokama qilish, badiiy asarlardan foydalanish) tizimli tarzda tatbiq etilsa, talabalarning axloqiy-estetik madaniyati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori sur’atlar bilan rivojlanadi.

Tadqiqot muammosini belgilashda uchta metodik qarama-qarshilik ajratiladi. Birinchidan, pedagogdan axloqiy mas’uliyat va estetik madaniyat talab etilgani holda mazkur sifatlarning shakllanishi ayrim o‘quv vaziyatlarida aniq kuzatiladigan ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanmaydi. Ikkinchidan, talabalar qiziqishi va boshlang‘ich tayyorgarligi turlicha bo‘lsa-da, tarbiyaviy topshiriqlar ko‘pincha bir xil shaklda taqdim etiladi. Uchinchidan, nazariy qadriyatlar haqida bilim berish va ularni real pedagogik xatti-harakatlarga ko‘chirish o‘rtasida metodik uzilish yuzaga kelishi mumkin. Ushbu qarama-qarshiliklar modelning diagnostik, mazmuniy, faoliyat va refleksiv bo‘g‘inlarini yagona tizimda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotda “axloqiy-estetik madaniyat” tushunchasi bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy tamoyillarni anglashi, kasbiy munosabatlarda ularga amal qilishga motivatsiyasi, estetik mezonlarni idrok etishi hamda tegishli bilim va qadriyatlarni amaliy pedagogik faoliyatda namoyon etishi bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Bunda estetik tarkib faqat tashqi bezak yoki harakat nafisligigagina keltirilmaydi; u pedagogik muloqotning ifodaliligi, mashg‘ulot muhitining uyg‘unligi va harakat madaniyatining mazmunli idrokini ham qamrab oladi.

Ushbu maqolaning maqsadi - mazkur farazni tekshirish uchun o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkiliy asoslarini, borishini va statistik jihatdan asoslangan natijalarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida dastlabki rivojlanganlik darajalarini diagnostika qilish, tajriba va nazorat guruhlarini solishtirish, ishlab chiqilgan modelni tajriba sharoitida qo‘llash, yakuniy ko‘rsatkichlar dinamikasini aniqlash va pedagogik xulosalarni shakllantirish belgilandi. Tadqiqot obyekti bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayoni, predmeti esa ushbu jarayonda axloqiy-estetik tarbiyani shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etish usullari hamda ularning natijadorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va tashkil etilishi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2023-2025-yillar davomida Urganch davlat universiteti (UrDU), Buxoro davlat universiteti (BuxDU) va Nukus davlat pedagogika instituti (NDPI)ning “Pedagogika va psixologiya”, “Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish” hamda “Maktabgacha ta’lim” ta’lim yo‘nalishlari negizida tashkil etildi. Tajriba-sinovga jami 450 nafar talaba jalb qilindi: 225 nafari tajriba guruhida (TG), 225 nafari nazorat guruhida (NG) (1-jadval).

Uchta oliy ta’lim muassasasining tajriba bazasi sifatida tanlangani metodikani turli tashkiliy-ta’lim sharoitlarida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Biroq tanlama tarkibidagi ta’lim yo‘nalishlari faqat jismoniy tarbiya o‘qituvchisi mutaxassisligidan iborat emas: “Pedagogika va psixologiya”, “Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish” hamda “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishlari ham kiritilgan. Shu bois natijalarni aynan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining barcha toifalariga avtomatik tatbiq etishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Guruhlar son jihatdan teng shakllantirilgani (har birida 225 nafar) ularning boshlang‘ich tarbiyalanganlik holati ham mutlaq bir xil bo‘lganini anglatmaydi. Bunday masala mustaqil statistik tekshiruv asosida hal qilinadi. Shuningdek, jadvalda ishtirokchilarning ta’lim muassasasi va yo‘nalishi bo‘yicha taqsimoti ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, yosh, jins, kurs, tanlash usuli va tajribadan chiqib ketish holatlari to‘g‘risidagi tafsilotlar berilmagan; ushbu axborotlar mavjud bo‘lsa, yakuniy nashrda alohida ochib berilishi lozim.

1-jadval. Tajriba-sinovga jalb etilgan talabalar tanlamasi

Oliy ta’lim muassasasi	Ta’lim yo‘nalishi	TG (nafar)	NG (nafar)	Jami
UrDU	Pedagogika va psixologiya	45	45	90
UrDU	Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish	40	40	80
BuxDU	Pedagogika va psixologiya	38	37	75

BuxDU	Maktabgacha ta’lim	35	35	70
NDPI	Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish	37	38	75
NDPI	Maktabgacha ta’lim	30	30	60
Jami		225	225	450

Tajriba-sinov uch bosqichda – ta’kidlovchi (aniqlovchi), shakllantiruvchi va nazorat (yakuniy) bosqichlarida amalga oshirildi. Ta’kidlovchi bosqichda talabalarning boshlang‘ich axloqiy-estetik tarbiyalanganlik darajasi diagnostika vositalari (anketa-so‘rovnoma, test-topshiriqlar, kuzatuv, suhbat) yordamida aniqlanib, guruhlarning statistik jihatdan tengligi asoslandi. Shakllantiruvchi bosqichda faqat tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan pedagogik model va texnologiya (diagnostika, kognitiv-nazariy, amaliy-faoliyat, refleksiv bosqichlar) izchil tatbiq etildi, nazorat guruhlarida esa an’anaviy shakl va metodlar saqlanib qolindi [3, 4]. Nazorat (yakuniy) bosqichda takroriy diagnostika o‘tkazilib, boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar solishtirma tahlil qilindi.

Talabalarning axloqiy-estetik madaniyatini diagnostika qilish uchun B.Blum taksonomiyasining kognitiv, affektiv va psixomotor sohalariga tayanib [2] uchta mezon belgilandi: kognitiv (bilim-tushuncha), motivatsion-qadriyatli (affektiv) va amaliy-faoliyat (psixomotor) mezonlari. Har bir mezon bo‘yicha talabalarning rivojlanganlik darajasi yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratildi. Diagnostika vositalari sifatida bilim testlari va yozma topshiriqlar (kognitiv mezon), qadriyat yo‘nalishlarini aniqlovchi anketa va Likert shkalasi asosidagi so‘rovnoma (motivatsion-qadriyatli mezon), xulq-atvorni kuzatish varaqalari, ekspert baholari hamda reflektiv kundalik va esse tahlili (amaliy-faoliyat mezoni) qo‘llanildi.

Pedagogik texnologiyaning amaliy qo‘llanish mexanizmlari

Modelning diagnostik bo‘g‘inida individual rivojlanish traektoriyasi talabaning dastlabki ko‘rsatkichlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Bunday traektoriya hamma uchun bir xil topshiriqni takrorlash o‘rniga, bilimni chuqurlashtirishga, qadriyatli mulohazani shakllantirishga yoki amaliy muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishga ustuvorlik berishni nazarda tutadi. Bosqichlararo qayta aloqa individual maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Kognitiv-nazariy bo‘g‘inda o‘quv vaziyatlarini muammoli savollar orqali ochib berish muhim. Masalan, jismoniy tayyorgarligi turlicha bo‘lgan ikki o‘quvchining harakat natijasini baholashda adolat mezoni qanday qo‘llanishi, jamoaviy o‘yinda g‘oliblikka intilish bilan o‘zaro hurmat qanday muvozanatlashtirilishi yoki sport musobaqasida hakam qaroriga nisbatan qanday pedagogik munosabat bildirilishi mumkinligi haqidagi keyslar bilim va kasbiy qarorni birlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur vaziyatlar metodik qo‘llanishning namunaviy misollari bo‘lib, maqolada alohida kuzatilgan tajriba holatlari sifatida keltirilmaydi.

Amaliy-faoliyat bo‘g‘inida rolli o‘yin, muammoli vaziyatni guruhda muhokama qilish va pedagogik xatti-harakatlarni kuzatish bir-birini to‘ldiradi. Talaba muayyan pedagogik pozitsiyani egallab ko‘rishi, muqobil yechimlarni muhokama qilishi va o‘z qarorining axloqiy oqibatlarini tushuntirishi mumkin. Estetik jihatdan esa ko‘rsatma berishning aniqligi, nutq ifodaliligi va harakatlarni namoyish etish madaniyatiga e’tibor qaratilishi nazariy tushunchalarning amaliy mazmunini oshiradi.

Refleksiv bo‘g‘in tarbiyaviy ta’sirni anglangan shaxsiy tajribaga aylantirishga qaratiladi. Reflektiv kundalik va esse talabaga o‘z qarori sabablarini ko‘rish, avvalgi nuqtai nazarini qayta baholash va kelgusida qanday o‘zgarish qilishini aniqlashtirish imkonini beradi. “Oldin va keyin” taqqoslash usuli aynan shu shaxsiy rivojlanish yo‘lini ko‘rishga xizmat qiladi; biroq refleksiyaning sifat o‘zgarishini tasdiqlash uchun yozma mahsulotlarni kodlash mezonlari oshkor etilishi maqsadga muvofiq.

Shu tariqa pedagogik texnologiyaning asosiy afzalligi nazariy bilim, hissiy-qadriyatli munosabat va kasbiy faoliyatni bir-biriga bog‘lash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Metodlarni boshqa fan va ta’lim yo‘nalishlariga ko‘chirishda esa o‘quv fanining mazmuni, talabalar kontingenti va mavjud pedagogik resurslarni hisobga olgan holda moslashtirish zarur.

Natijalar va muhokama. Natijalarni qayta ishlashda K.Pirsonning χ^2-mezonidan foydalanildi (H “0” - guruhlar taqsimoti farq qilmaydi, H “1” - farq statistik ishonchli, $\alpha=0,05$, $f=k-1=2$, $\chi^2kr=5,99$). Ta’kidlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari yaqin bo‘lgan, yuqori darajadagi talabalar ulushi TG da 17,8%, NG da 16,9%; o‘rta darajada mos ravishda 43,6% va 42,7%; past darajada 38,6% va 40,4% (2-jadval).

Statistik baholashda uch daraja bo‘yicha chastotalar qiyoslanayotgani sababli Pirsonning mustaqil guruhlar uchun χ^2-mezonidan foydalanish o‘rinli. U quyidagicha aniqlanadi: $\chi^2 = \Sigma[(O_i - E_i)^2 / E_i]$, bu yerda O_i – kuzatilgan, E_i – nol gipoteza sharoitida kutilgan chastota. Mazkur hisoblash guruhlar o‘rtasidagi darajalar taqsimoti bir xil ekanligi haqidagi nol gipotezani tekshiradi; u individual talabalar necha ball o‘sganini bevosita hisoblamaydi.

Chastotalar jadvalidagi barcha kutilgan qiymatlar 5 dan katta ekani ushbu qo‘llanish uchun odatiy minimal talab bajarilganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, tahlil xulosasi ishtirokchilarning bir-biridan mustaqil kuzatilganiga ham bog‘liq. Boshlang‘ich va yakuniy natijalar aynan bir shaxslar bo‘yicha kuzatilgan bo‘lsa, guruh ichidagi o‘zgarishni aniq tekshirish uchun juftlangan kategoriyali ma’lumotlar talab etiladi.

2-jadval. Ta’kidlovchi bosqichda guruhlarning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari (o‘rtacha, umumlashtirilgan)

Guruh	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
Tajriba (n=225)	40 (17,8%)	98 (43,6%)	87 (38,6%)	225
Nazorat (n=225)	38 (16,9%)	96 (42,7%)	91 (40,4%)	225

Hisoblash natijasida χ^2emp ≈ 0,16 qiymati olindi, bu kritik qiymatdan (5,99) ancha kichik (0,16 < 5,99). Demak, H “0” gipoteza qabul qilinadi: ta’kidlovchi bosqichda guruhlar o‘rtasida statistik ishonchli farq mavjud emas, ya’ni tajriba va nazorat guruhlari boshlang‘ich holati bo‘yicha teng (ekvivalent) shakllantirilgan.

Boshlang‘ich taqsimotlarda yuqori darajadagi ishtirokchilar soni 40 va 38 nafar, o‘rta darajada 98 va 96 nafar, past darajada 87 va 91 nafarni tashkil etgan. Bu farqlar kichik bo‘lib, χ^2=0,1618 va p≈0,922 natijasi guruhlar darajalari taqsimoti bo‘yicha statistik farqni aniqlash uchun dalil yetarli emasligini bildiradi. Biroq statistik jihatdan ahamiyatli farq topilmaganligi guruhlarning barcha yashirin xususiyatlari ham aynan bir xil ekanini isbotlamaydi.

Bu keyingi solishtirmalarning ishonchliligini ta’minlovchi muhim shart hisoblanadi.

Shakllantiruvchi tajriba yakunlangach o‘tkazilgan takroriy diagnostika natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Nazorat (yakuniy) bosqichda guruhlarning yakuniy ko‘rsatkichlari (o‘rtacha, umumlashtirilgan)

Guruh	Yuqori	O‘rta	Past	Jami
Tajriba (n=225)	93 (41,3%)	109 (48,4%)	23 (10,2%)	225
Nazorat (n=225)	48 (21,3%)	109 (48,4%)	68 (30,2%)	225

3-jadval ma’lumotlari shakllantiruvchi tajriba natijasida tajriba guruhida sifat o‘zgarishi yuz berganini ko‘rsatadi: yuqori darajadagi talabalar ulushi 17,8%dan 41,3%gacha (+23,5 foiz punkt) o‘sdi, past darajadagi talabalar ulushi esa 38,6%dan 10,2%gacha (−28,4 foiz punkt) qisqardi. Nazorat guruhida o‘zgarishlar ancha sust kechdi: yuqori daraja 16,9%dan 21,3%gacha (+4,4 foiz punkt) o‘sdi, past daraja 40,4%dan 30,2%gacha (−10,2 foiz punkt) qisqardi (1-diagramma).

Tajriba guruhidagi yuqori darajali talabalar soni 40 nafardan 93 nafarga, ya’ni 53 nafarga oshgan; nazorat guruhida esa 38 nafardan 48 nafarga, 10 nafarga oshgan. Past darajadagi talabalar sonining TGda 87 nafardan 23 nafarga, NGda esa 91 nafardan 68 nafarga kamaygani ham o‘zgarishlar miqyosi turlicha ekanini ko‘rsatadi. O‘rta darajada yakuniy son ikkala guruhda ham 109 nafardan iborat bo‘lgani natijani faqat bir toifa asosida emas, uch darajali taqsimotning yaxlit shakli orqali baholash lozimligini anglatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar guruh darajasidagi ulushlar dinamikasini aks ettiradi. Individual o‘tishlar jadvali mavjud bo‘lmagani uchun past darajadan bevosita yuqori darajaga nechta talaba o‘tgani yoki ayrim talabalar holati yomonlashgani haqida qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Xuddi shunday, natijalarni kognitiv, motivatsion-qadriyatli hamda amaliy-faoliyat mezonlari bo‘yicha chuqur taqqoslash uchun mezonlarga oid alohida dastlabki chastotalar zarur.

Yakuniy bosqichda hisoblangan χ^2emp = 36,61 qiymati kritik qiymatdan (χ^2kr = 5,99) sezilarli darajada yuqori (36,61 > 5,99), hatto α=0,01 darajasidagi kritik qiymat (9,21)dan ham yuqori chiqdi. Demak, H “0” gipoteza rad etilib, H “1” gipoteza qabul qilinadi: tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq 95% (hatto 99%) ishonchlilik darajasida statistik jihatdan ishonchlidir. Har bir mezon (kognitiv, motivatsion-qadriyatli, amaliy-faoliyat) bo‘yicha alohida hisoblangan χ^2emp qiymatlari mos ravishda 36,72; 35,07 va 38,11ni tashkil etib, barchasi kritik qiymatdan ancha yuqori bo‘lib chiqdi, bu natijaning barqarorligini tasdiqlaydi.

Umumlashtirilgan yakuniy jadval bo‘yicha mustaqil qayta hisoblash χ^2≈36,6144 va p≈$1{,}12\times10^{-8}$ natijani beradi. Bu ko‘rsatkich ikki guruhda yakuniy darajalar taqsimoti tasodifiy tebranish bilan izohlanishi qiyin bo‘lgan darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Amaliy ahamiyatni talqin qilishda faqat p-qiymatiga tayanish yetarli emas: farqning mazmuni aynan yuqori daraja ulushidagi 20,0 foiz punktlik yakuniy tafovut va past daraja ulushidagi 20,0 foiz punktlik tafovut orqali ochiladi.

Asl materialda uchta alohida mezon bo‘yicha χ^2 qiymatlari ham berilgan. Biroq mezonlar kesimidagi chastota jadvallari taqdim etilmagani sababli ularni mazkur umumlashtirilgan jadval yordamida mustaqil tekshirib bo‘lmaydi. Shu bois 36,72; 35,07 va 38,11 qiymatlari boshlang‘ich materialda qayd etilgan hisobot natijalari sifatida saqlanadi; nashrdan oldin ularga mos asosiy taqsimotlarni ilova qilish tavsiya etiladi.

Farqning ta’sir kattaligini tavsiflash uchun yakuniy 2×3 jadval asosida Cramérning V koeffitsiyenti hisoblanishi mumkin: $V = \sqrt{[\chi^2/(N \cdot \min(r-1, c-1))]} \approx \sqrt{(36{,}6144/450)} \approx 0{,}285$. Ushbu ko‘rsatkich yakuniy guruh va tarbiyalanganlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi; u metodikaning sof sababiy ta’sirini alohida isbotlovchi o‘lchov emas.

Xulosa. O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: 1) ta'kidlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlari statistik jihatdan teng (ekvivalent) bo‘lgan ($\chi^2emp=0{,}16<\chi^2kr=5{,}99$);

2) shakllantiruvchi tajriba davomida tajriba guruhlarida tatbiq etilgan pedagogik model va uning interfaol metodlar tizimi talabalarning axloqiy-estetik madaniyatini sezilarli darajada rivojlantirdi;

3) nazorat (yakuniy) bosqichda aniqlangan farq statistik jihatdan ishonchli bo‘lib chiqdi ($\chi^2emp=36{,}61>\chi^2kr=5{,}99$, $p<0{,}01$);

4) taklif etilgan modelning samaradorlik ko‘rsatkichi 19,1 foiz punktni tashkil etdi. Bu natijalar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida axloqiy-estetik tarbiyalash bo‘yicha ishlab chiqilgan pedagogik modelning an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqori pedagogik samaraga ega ekanligini tasdiqlaydi va tadqiqot boshida ilgari surilgan ilmiy farazni qo‘llab-quvvatlovchi dalillar beradi. Model va uning amaliy-metodik ta’minotini oliy ta'lim muassasalarining pedagogik amaliyotiga keng tatbiq etish tavsiya etiladi.

Umuman, umumlashtirilgan natijalarda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi yakuniy farq statistik jihatdan ahamiyatli ekani tasdiqlanadi. Biroq ushbu topilma tajriba sharoiti doirasida talqin qilinishi, tanlama tuzilmasi va metodik cheklovlar e’tiborga olinishi zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosidagi modelni takomillashtirish istiqboli mezonlarga mos diagnostik protokollarni aniqlashtirish, individual rivojlanish trayektoriyasini hujjatlashtirish va natijani uzoq muddatli kuzatish bilan bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentyabr.

2. Bloom B.S., Engelhart M.D., Furst E.J., Hill W.H., Krathwohl D.R. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: Longman, 1956.

3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.

4. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. — Toshkent, 2000.

5. Rogers C.R., Freiberg H.J. Freedom to Learn. 3rd ed. Columbus, Ohio: Merrill/Prentice Hall, 1994.

6. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 1996.

7. Сериков В.В. Личностный подход в образовании: концепция и технологии. – Волгоград: Перемена, 1994.

8. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2000.

9. Белорусова В.В. Воспитание в спорте. – М.: Физкультура и спорт, 1974.

10. Pearson K. On the criterion that a given system of deviations from the probable in the case of a correlated system of variables is such that it can be reasonably supposed to have arisen from random sampling // Philosophical Magazine. – 1900. – Vol. 50, № 302. –P. 157–175.

11. Glass G.V., Stanley J.C. Statistical Methods in Education and Psychology. – Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, 1970.

12. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи: Монография. – Ташкент, 2018.

13. Usmanova Sh.Sh., Yoqubova D.M. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTSU, 2019.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son Qarori.

15. Ergashev Sh.D. Milliy pedagogik tafakkurda jismoniy tarbiya g‘oyalarining tarixiy-genetik ildizlari (folklor materiallari asosida): PhD diss. avtoreferati. – Qo‘qon, 2026.

16. Абрамова Л.З. Воспитание эстетической культуры студента в образовательном процессе: дисс. … канд. пед. наук. – 2006.

SHAXSDA MENTAL RESURSLAR MUAMMOSI

Avazyazova Dilfuza Shovkatovna,
Osiyo xalqaro universiteti “Pedagogika nazariyasi” kafedrasi dotsenti, PhD

Ushbu maqolada shaxsning mental resurslari muammosi zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Mental resurs tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs faoliyati, psixologik barqarorligi, moslashuvi va shaxsiy rivojlanishidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, kognitiv, emotsional, motivatsion, irodaviy, refleksiv va ijtimoiy resurslarning shaxs hayotidagi ahamiyati tahlil qilinib, mental resurslarning stressli vaziyatlarni yengib o‘tish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish hamda psixologik farovonlikni ta’minlashdagi roli ochib beriladi. Maqolada shaxsning mental resurslarini aniqlash, saqlash va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *shaxs, mental resurs, psixologik resurs, kognitiv resurs, emotsional resurs, motivatsiya, iroda, refleksiya, psixologik barqarorlik, rezilentlik, moslashuv.*

ПРОБЛЕМА МЕНТАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ЛИЧНОСТИ

В статье анализируется проблема ментальных ресурсов личности на основе современных психологических подходов. Раскрывается содержание понятия ментальных ресурсов, а также их роль в деятельности личности, обеспечении психологической устойчивости, адаптации и личностном развитии. Особое внимание уделяется анализу значения когнитивных, эмоциональных, мотивационных, волевых, рефлексивных и социальных ресурсов в жизнедеятельности личности. Раскрывается роль ментальных ресурсов в преодолении стрессовых ситуаций, принятии конструктивных решений в проблемных ситуациях и обеспечении психологического благополучия. Особое внимание уделено вопросам выявления, сохранения и развития ментальных ресурсов личности.

Ключевые слова: *личность, ментальные ресурсы, психологические ресурсы, когнитивные ресурсы, эмоциональные ресурсы, мотивация, воля, рефлексия, психологическая устойчивость, резильентность, адаптация.*

THE PROBLEM OF MENTAL RESOURCES OF PERSONALITY

This article analyzes the problem of mental resources of personality based on contemporary psychological approaches. The content of the concept of mental resources and their role in personality functioning, psychological stability, adaptation, and personal development are examined. Particular attention is given to the significance of cognitive, emotional, motivational, volitional, reflective, and social resources in personality functioning. The article highlights the role of mental resources in coping with stressful situations, making constructive decisions in problematic situations, and maintaining psychological well-being. Special attention is paid to the identification, preservation, and development of an individual's mental resources.

Keywords: *personality, mental resources, psychological resources, cognitive resources, emotional resources, motivation, will, reflection, psychological stability, resilience, adaptation.*

Kirish. Butun dunyoda yuzaga kelayotgan zamonaviy beqaror, inqirozli siyosiy va iqtisodiy vaziyat inson zimmasiga, hayot subyekti sifatida, o‘z tanlovlari va shaxsiy samaradorligi uchun mas’uliyatni yanada oshiruvchi alohida talablarni qo‘ymoqda. Biroq ayrim insonlar hayotning og‘ir, ruhiy jarohat yetkazuvchi sharoitlariga, ketma-ket yo‘qotishlar va salbiy voqealarga qaramay, hayotga bardoshli, faol bo‘lib qoladilar, kelajakka umid va odamlarga ishonchni saqlab qoladilar. Boshqa insonlar esa, birinchilarga nisbatan o‘n baravar kam sinovlarga duch kelgan bo‘lsalar-da, go‘yo ruhan sinib qolgandek ko‘rinadilar, hayotdan quvonch topolmaydilar va atrofdagi insonlarning hayotini ham murakkablashtiradilar.

Hayotiy qiyinchiliklarga qaramay, insonning o‘zini saqlab qolishi va rivojlantirishi sabablariga oid savolga javobni insonning “ichki kuchlari”ni o‘rganish doirasidan izlash lozimdir. Shu nuqtayi nazardan, insonning yuksak natijalarga erishishi, hayot talablarini muvaffaqiyatli uddalashi, kundalik, ekstremal va surunkali stresslarning turli ko‘rinishlarini yengib o‘tishi hamda o‘z hayotidan qoniqish hosil qilishiga imkon beruvchi mental resurslar muammosi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Boshqacha aytganda, bu resurslar

insonning o‘zini o‘z hayotining haqiqiy egasi – uning subyekti sifatida his qilishi va namoyon etishiga yordam beradi.

Aynan resurslar M.E.P. Seligman va M.Csikszentmihalyi tomonidan “shaxsning ijobiy xususiyatlari” sifatida talqin qilinadi. Ular insonning ichki kuchlari bo‘lib, uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, atrofdagilar nazaridagi qadr-qimmatini oshiradi, muvaffaqiyatliroq, samaraliroq va hayotiy qiyinchiliklarga bardoshliroq bo‘lishiga yordam beradi [6].

Shunday qilib, mental resurslarni hayot samaradorligi va uning anglanganlik darajasini belgilovchi muhim omil sifatida baholash mumkin. S.L.Solovyova ta’kidlaganidek, ular “har bir shaxs uchun muhim kapital” hisoblanadi [7].

Psixologiyada uzoq vaqt davomida shaxsning muammolari, kamchiliklari, stress holatlari va psixologik buzilishlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan. Biroq zamonaviy pozitiv psixologik yondashuvlar insonning faqat muammoli jihatlarini emas, balki uning kuchli tomonlari, imkoniyatlari, salohiyati va mavjud resurslarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan mental resurslar shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o‘tishi, o‘z faoliyatini boshqarishi va rivojlanishini ta’minlovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mental resurslar muammosining dolzarbligi, avvalo, insonning zamonaviy hayot sharoitida duch kelayotgan psixologik yuklamalarining ortib borishi bilan izohlanadi. Axborot oqimining kuchayishi, ta’lim va kasbiy faoliyatga qo‘yilayotgan talablarning ortishi, shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi, noaniqlik va tezkor o‘zgarishlar insondan yuqori darajadagi kognitiv, emotsional va irodaviy faollikni talab qilmoqda.

Shu sababli shaxsning mental resurslarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Mental resurslarning holatini aniqlash orqali shaxsning stressga chidamliligi, moslashuvchanligi, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari va rivojlanish salohiyatini baholash mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda “resurs” tushunchasi T.V.Kornilova, E.A.Sergiyenko tomonidan umumiy psixologiyada, D.A.Leontyev tomonidan shaxs psixologiyasida, S.A.Bagretsov, A.N.Lutoshkin tomonidan ijtimoiy psixologiya tadqiqotlarida, V.A.Bodrov stress psixologiyasiga oid ishlarda keng qo‘llanilmoqda.

Natijada o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va nutqiy faoliyati rivojlanadi. Neyrolingvistik diagnostika asosida individuallashtirilgan topshiriqlardan foydalanish boshlang‘ich ona tili ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.

3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2024. – 204 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021. – 84 b.

5. Luriya A.R. Yazik i soznaniye / Pod red. E.D. Homskoy. – Moskva: Izd-vo MGU, 1979. – 320 s.

6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2005. – 352 с.

7. Connor C.M., Morrison F.J., Fishman B.J., Schatschneider C., Underwood P. Algorithm-Guided Individualized Reading Instruction // Science. – 2007. – Vol. 315, No. 5811. – P. 464–465.

8. Wong P.C.M., Morgan-Short K., Ettlinger M., Zheng J. Personalized learning: From neurogenetics of behaviors to designing optimal language training // Neuropsychologia. – 2017. – Vol. 98. – P. 192–200.

UO‘K 373.3.016:811.512.133

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONEMATIK IDROK VA GRAFIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Do‘stmuratova Bahora Olimovna,
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda fonematik idrokning tovushlarni farqlash, so‘z tarkibini tahlil qilish, tovushning o‘rnini aniqlash kabi komponentlari hamda grafik ko‘nikmalarning harf elementlarini to‘g‘ri bajarish, harflarni bog‘lash, so‘z va gaplarni yozma ravishda aniq ifodalash bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Amaliy topshiriqlar sifatida fonematik tahlil, tovush-harf modellashtirish, grafik diktant, namunaga qarab yozish, didaktik o‘yinlar va differensial mashqlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tahliliy natijalar fonematik mashqlarni grafik faoliyat bilan izchil bog‘lash o‘quvchilarning tovush-harf munosabatini anglashiga, yozuvdagi xatolarni kamaytirishiga va mustaqil nazorat ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam berishini ko‘rsatadi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, fonematik idrok, fonema, tovush, harf, grafik ko‘nikma, savodxonlik, yozuv, fonematik tahlil, tovush-harf munosabati, grafik diktant, didaktik o‘yin, differensial ta’lim.*

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PHONEMIC PERCEPTION AND GRAPHIC SKILLS AMONG PRIMARY SCHOOL PUPILS

This article analyzes the pedagogical opportunities for developing phonemic perception and graphic skills among primary school pupils. The study examines such components of phonemic perception as distinguishing sounds, analyzing the sound structure of words, and identifying the position of a sound within a word, as well as aspects of graphic skills related to accurately reproducing letter elements, connecting letters, and clearly expressing words and sentences in written form. The methodological framework of the study is based on systemic, learner-centered, activity-based, and competency-based approaches. The possibilities of using phonemic analysis, sound-letter modeling, graphic dictation, copying from a model, didactic games, and differentiated exercises are considered as practical tasks. The analytical results indicate that the consistent integration of phonemic exercises with graphic activities contributes to pupils’ understanding of sound-letter relationships, reduces writing errors, and supports the development of independent self-monitoring skills. The article also provides practical methodological recommendations for primary school teachers.

Keywords: *primary education, phonemic perception, phoneme, sound, letter, graphic skills, literacy, writing, phonemic analysis, sound-letter relationship, graphic dictation, didactic game, differentiated instruction.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ФОНЕМАТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ И ГРАФИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье проанализированы педагогические возможности развития фонематического восприятия и графических навыков у учащихся начальных классов. В исследовании рассмотрены такие компоненты фонематического восприятия, как различение звуков, анализ звукового состава слова и определение позиции звука в слове, а также аспекты графических навыков, связанные с правильным выполнением элементов букв, соединением букв и точным письменным выражением слов и предложений. Методологическую основу исследования составили системный, личностно ориентированный, деятельностный и компетентностный подходы. В качестве практических заданий рассмотрены возможности использования фонематического анализа, звуко-буквенного

моделирования, графического диктанта, письма по образцу, дидактических игр и дифференцированных упражнений. Результаты анализа показывают, что последовательное сочетание фонематических упражнений с графической деятельностью способствует осмыслению учащимися звуко-буквенных отношений, снижению количества ошибок в письменной работе и формированию навыков самостоятельного контроля. В статье также разработаны практические методические рекомендации для учителей начальных классов.

Ключевые слова: *начальное образование, фонематическое восприятие, фонема, звук, буква, графические навыки, грамотность, письмо, фонематический анализ, звуко-буквенные отношения, графический диктант, дидактическая игра, дифференцированное обучение.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining keyingi o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayanch ko‘nikmalarni shakllantiradigan muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qish va yozishni egallash jarayonida bolaning tovushlarni eshitish va farqlash qobiliyati, tovush-harf munosabatini anglash darajasi hamda grafik harakatlarni aniq bajarishi uning savodxonligi bilan bevosita bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirish masalasi boshlang‘ich ta’lim metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Fonematik idrok bolaning nutq tovushlarini bir-biridan farqlashi, ularning so‘zdagi o‘rnini aniqlashi, tovushlar ketma-ketligini anglash va fonemaning so‘z ma’nosini farqlashdagi rolini tushunishi bilan tavsiflanadi. Bola tovushni shunchaki eshitishi bilan fonematik idrok shakllangan deb bo‘lmaydi. U tovushni ongli ravishda ajratishi, taqqoslashi, so‘z tarkibida aniqlashi va uni tegishli grafik belgi bilan bog‘lay olishi kerak.

Grafik ko‘nikmalar esa yozuv jarayonining texnik tomonlari bilan bir qatorda tovush-harf munosabatini yozma nutqda ifodalashni ham qamrab oladi. Harf elementlarini to‘g‘ri bajarish, harf shaklini saqlash, harflarni bog‘lash, satr va masofaga rioya qilish, so‘z va gaplarni aniq yozish grafik ko‘nikmaning tarkibiy qismlaridir. Grafik faoliyatning muvaffaqiyati bolaning mayda motorikasi, ko‘rish-harakat koordinatsiyasi va fazoviy tasavvuriga ham bog‘liq.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, fonematik idrokdagi kamchiliklar yozuvda tovush yoki harfni tushirib qoldirish, almashtirish, ortiqcha harf yozish kabi xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli tovushni eshitish va ajratish mashqlarini yozuv topshiriqlari bilan uzviy bog‘lash maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchi avval so‘zni eshitadi, keyin uni tahlil qiladi, tovushlar ketma-ketligini aniqlaydi va shundan so‘ng grafik belgilar yordamida yozadi.

Ta’lim jarayonining zamonaviy talablari o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun fonematik va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘yin, muammoli vaziyat, juftlik va guruhdagi faoliyat, ko‘rgazmali modellashtirish, differensial topshiriqlar hamda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish muhim pedagogik imkoniyatlar sifatida qaralishi mumkin. [4; 5; 6]

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni amaliy mashqlar tizimi orqali tavsiflash va o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarning o‘zaro aloqasi, ularni baholash mezonlari hamda rivojlantiruvchi mashqlar tizimi asosiy e’tibor markaziga olindi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’limda savodxonlikni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya, lingvistika va ona tili o‘qitish metodikasi kesishmasida o‘rganiladi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bolaning nutqni eshitish, tovushlarni farqlash, tovush va harf munosabatini anglash, o‘qish hamda yozuv harakatlarini egallash jarayonlari o‘zaro bog‘liq holda talqin qilinadi.

Mahalliy metodik adabiyotlarda savod o‘rgatish jarayonida tovush tahlili, bo‘g‘in ustida ishlash, tovush-harf munosabatini tushuntirish va yozuv malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun fonetik materialni aniq, sodda va amaliy topshiriqlar asosida berish uning mavzuni o‘zlashtirishini yengillashtiradi. Ayniqsa, tovushni ajratishdan harfni yozishgacha bo‘lgan jarayonning izchil tashkil etilishi muhim metodik shart hisoblanadi.[1]

Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo‘ldosheva kabi metodistlarning savod o‘rgatish bilan bog‘liq qarashlarida tovush ustida ishlash, tovush-harf munosabatini anglatish va yozuvga tayyorlash masalalari muhim o‘rin tutadi. K. Qosimova va hammualliflarning ona tili o‘qitish metodikasiga oid ishlarida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til hodisalarini amaliy faoliyat orqali egallashiga urg‘u beriladi.

Psixologik nuqtayi nazardan L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin kabi olimlarning qarashlari o‘quvchining nutqiy va yozma faoliyati ijtimoiy hamda faoliyat jarayonida rivojlanishini tushuntirish uchun metodologik

ahamiyatga ega. Nutqni anglash va yozuvni egallash bir-biridan uzilgan jarayon emas, balki bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqat va harakat faoliyati bilan bog‘langan murakkab rivojlanish jarayonidir. [7]

Fonologik xabardorlikka oid xalqaro tadqiqotlarda ham tovushlarni ajratish, ularni manipulyatsiya qilish va tovush-harf munosabatini anglashning dastlabki savodxonlik uchun muhimligi ko‘rsatiladi. Bunday qarashlar boshlang‘ich ta’limda fonematik mashqlarni muntazam va bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini qo‘llab-quvvatlaydi.[5]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fonematik idrok va grafik ko‘nikmalar ko‘pincha alohida komponentlar sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni bitta metodik tizimda uyg‘unlashtirish o‘quvchining savodxonlik faoliyatini yaxlit tashkil etish imkonini beradi. Shu jihatdan fonematik tahlilni yozuv, grafik modellashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan bog‘lovchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv fonematik va grafik ko‘nikmalarni alohida mashqlar yig‘indisi emas, o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan yagona jarayon sifatida ko‘rishga imkon beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatish, suhbat, amaliy topshiriqlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va diagnostik baholash metodlaridan foydalanish nazarda tutildi. Diagnostik topshiriqlar uch yo‘nalishga ajratildi: fonematik idrokni baholash, tovush-harf munosabatini aniqlash va grafik yozuv ko‘nikmalarini baholash.

Fonematik idrokni baholashda o‘quvchidan berilgan tovushni so‘z ichidan topish, tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlash, so‘zni tovushlarga ajratish, tovushlar sonini belgilash va bir tovushni almashtirib yangi so‘z hosil qilish so‘raladi. Tovush-harf munosabatini baholashda eshitilgan tovushga mos harfni tanlash, so‘z modelini harflar bilan to‘ldirish va xatoni aniqlash topshiriqlaridan foydalaniladi.[2]

Grafik ko‘nikmalarni baholashda harf elementlarini to‘g‘ri bajarish, harf shaklini saqlash, harflarni bog‘lash, so‘zlar orasidagi masofani saqlash, satrga rioya qilish, yozuvning aniqligi va mustaqil xatoni tuzatish qobiliyati mezon sifatida olindi.

Natijalarni tahlil qilishda shartli uch daraja: yuqori, o‘rta va boshlang‘ich darajalar belgilandi. Yuqori darajada o‘quvchi topshiriqlarni mustaqil va aniq bajaradi; o‘rta darajada asosiy topshiriqlarni bajaradi, biroq ayrim murakkab holatlarda yordamga ehtiyoj sezadi; boshlang‘ich darajada esa o‘quvchi topshiriqni bajarishda muntazam ko‘mak talab qiladi.

Tadqiqotning amaliy qismida fonematik mashqlar grafik faoliyat bilan bog‘landi. Masalan, “Eshit – tahlil qil – yoz” mashqida o‘quvchi so‘zni tinglaydi, takrorlaydi, tovushlar sonini aniqlaydi, har bir tovushga mos grafik belgini tanlaydi va so‘zni yozadi. “Tovushni top”, “Bir tovushni almashtir”, “So‘z modelini tuz”, “Xatoni top”, “Grafik yo‘l” kabi mashqlar ham shu maqsadda qo‘llanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot doirasida taklif etilgan mashqlar tizimining asosiy natijasi fonematik va grafik faoliyatni izchil birlashtirish imkoniyati bilan izohlanadi. O‘quvchi avval tovushni eshitadi, keyin uni ajratadi, so‘z tarkibidagi o‘rnini aniqlaydi, tegishli harfni tanlaydi va yozuv orqali mustahkamlaydi. Shu tariqa bir topshiriq doirasida eshitish, nutqiy, ko‘rish va harakat faoliyatlari o‘zaro bog‘lanadi.

Shartli diagnostik tahlil natijalarini ifodalash uchun 60 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi misolida uch darajali mezonlar modeli qo‘llanildi. Quyidagi jadval metodik modelning kutiladigan natijalarini foizlarda ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar maqolada taklif etilayotgan yondashuvni tahlil qilish uchun namunaviy diagnostik model sifatida berilgan.

1-jadval.

Ko‘rsatkich	Boshlang‘ich diagnostika	Rivojlantiruvchi bosqichdan keyin	O‘zgarish
Fonemani farqlash	48%	78%	+30 foiz band
Tovushning o‘rnini aniqlash	45%	74%	+29 foiz band
Fonematik tahlil	42%	72%	+30 foiz band
Tovushga mos harfni tanlash	50%	80%	+30 foiz band
Harf elementlarini to‘g‘ri yozish	46%	76%	+30 foiz band
Harflarni bog‘lab yozish	44%	73%	+29 foiz band
Xatoni mustaqil aniqlash	35%	68%	+33 foiz band

Jadvaldagi namunaviy ko‘rsatkichlardan ko‘rinadiki, rivojlantiruvchi mashqlar tizimidan keyin barcha mezonlar bo‘yicha ijobiy siljish kuzatiladi. Eng katta o‘zgarish xatoni mustaqil aniqlash ko‘rsatkichida namoyon bo‘lishi kutiladi. Bu o‘quvchining faqat tayyor topshiriqni bajarishi emas, balki o‘z faoliyatini nazorat qila boshlaganini anglatadi. Fonemani farqlash va fonematik tahlildagi o‘sish esa tovush-harf munosabatini anglashga bevosita ta’sir qiladi.

Fonematik mashqlar natijalarining tahlili. Fonematik idrokni rivojlantirishda eng samarali topshiriqlardan biri tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlashdir. O‘quvchi berilgan fonemani eshitibgina qolmay, uning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishini aniqlashi kerak. Bu topshiriq tovushni umumiy eshitishdan aniq fonematik tahlilga o‘tishni ta’minlaydi.

Minimal juftliklar bilan ishlash ham muhim natija beradi. Masalan, “gul–kul”, “bol–pol”, “tol–dol” kabi so‘zlarni taqqoslash orqali o‘quvchi bitta tovush almashishi natijasida so‘z ma’nosi o‘zgarishini kuzatadi. Bunday topshiriqlar fonemaning funksional ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Tovush-harf modellashtirish natijasida o‘quvchi abstrakt tovushni ko‘rgazmali belgiga aylantirishni o‘rganadi. Dastlab so‘zning tovush modeli tuziladi, keyin har bir tovush o‘rniga tegishli harf qo‘yiladi. Bu usul ayniqsa tovushni tushirib qoldirish yoki harfni almashtirishga moyil o‘quvchilar bilan ishlashda qulay.

Grafik ko‘nikmalar natijalarining tahlili. Grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishda qisqa va muntazam mashqlar muhim ahamiyatga ega. Harf elementlarini havoda bajarish, barmoq bilan namuna ustidan yurish, katak yoki chiziqli maydonda yozish va keyinchalik mustaqil yozuvga o‘tish harakatlar ketma-ketligini o‘zlashtirishga yordam beradi.[3]

Yozuvdagi xatolarni tahlil qilish grafik ko‘nikmaning qaysi komponenti yetarli shakllanmaganini aniqlash imkonini beradi. Harf shaklining buzilishi, elementlarning noto‘g‘ri nisbatda bo‘lishi, bog‘lanish joyining xato bajarilishi yoki satrga rioya qilmaslik turli xil korreksion mashqlarni talab qiladi.

Grafik diktant fonematik va grafik ko‘nikmalarni birlashtirish uchun ayniqsa qulay. O‘quvchi eshitgan materialni xotirada saqlaydi, uni fonematik jihatdan qayta ishlaydi va grafik belgilar orqali ifodalaydi. Natijada eshitish, xotira, diqqat va yozuv harakatlari birgalikda ishlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalarining tahlili fonematik idrokni grafik ko‘nikmalardan ajratib o‘qitishning cheklanganligini ko‘rsatadi. Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchi tovushni eshitishi, uni farqlashi, tegishli harfni tanlashi va yozishi bir-birini to‘ldiradigan faoliyat sifatida tashkil etilganda o‘quv materiali yaxlitroq o‘zlashtiriladi.

Adabiyotlar tahlilida qayd etilgan tovush tahlili, faoliyatga asoslangan ta’lim va yozuvni bosqichma-bosqich shakllantirish g‘oyalari taklif etilgan metodik yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvning o‘ziga xos jihati fonematik topshiriqdan grafik topshiriqqa o‘tishning aniq algoritmini taklif qilishdir: “eshitish – ajratish – tahlil – harfni tanlash – yozish – tekshirish”.

Differensial yondashuv natijalarni yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi. Fonematik idroki nisbatan past o‘quvchiga qisqa va ko‘rgazmali topshiriqlar berish, grafik ko‘nikmasida qiyinchilik bo‘lgan o‘quvchiga esa harf elementlari va yozuv yo‘nalishlarini bosqichma-bosqich mashq qildirish maqsadga muvofiq. Tez o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun esa ijodiy va mustaqil topshiriqlar berilishi mumkin.[4]

Raqamli vositalardan foydalanish ham qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Audio yozuvlar orqali tovushni eshittirish, interaktiv ekran orqali harf shaklini ko‘rsatish yoki elektron mashqlar orqali tezkor teskari aloqa berish mumkin. Biroq texnologiya o‘qituvchining metodik boshqaruvini almashtirmasligi kerak; u an’anaviy amaliy faoliyatni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.[6]

Tadqiqot modelining cheklovi shundaki, keltirilgan foizli ko‘rsatkichlar metodik yondashuvni namoyish etuvchi namunaviy diagnostik model sifatida berilgan. Muayyan maktab yoki sinfda real tajriba-sinov o‘tkazilganda ishtirokchilar soni, sinf sharoiti, topshiriqlar mazmuni va baholash mezonlari alohida qayd etilishi zarur. Shu sababli natijalarni amaliy tadqiqotda mahalliy sharoitga moslashtirish talab etiladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirish savodxonlikning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq jarayondir. Fonematik idrok tovushlarni aniq farqlash va tahlil qilish imkonini bersa, grafik ko‘nikmalar ushbu fonematik tasavvurlarni yozma shaklda ifodalashni ta’minlaydi.

Tadqiqot tahlili fonematik mashqlarni yozuv faoliyati bilan izchil bog‘lash, ko‘rgazmali modellashtirish, didaktik o‘yin, grafik diktant, differensial topshiriq va o‘z-o‘zini nazorat qilish mashqlaridan foydalanish pedagogik jihatdan samarali imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “eshitish – tahlil qilish – harfni tanlash – yozish – tekshirish” ketma-ketligi o‘quv faoliyatini mantiqiy tashkil etishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga har bir darsda qisqa fonematik mashqlarni qo‘llash, yangi tovush va harfni amaliy so‘zlar asosida o‘rgatish, yozuv elementlarini muntazam takrorlash, xatoni o‘quvchining o‘zi topishiga imkon berish va individual farqlarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, fonematik idrok va grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishga kompleks yondashuv o‘quvchining o‘qish-yozish faoliyatini izchil egallashiga, yozma nutq aniqligini oshirishga va keyingi ta’lim bosqichlarida zarur bo‘ladigan savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi: boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. — Toshkent: Noshir, 2009. — 352 b.

2. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo‘ldosheva Sh. Savod o‘rgatish metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996. — 80 b.

3. G‘afforova T., G‘ulomova X., Eshturdiyeva G. 1-sinfda savod darslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996. — 86 b.

4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. — 200 b.

5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006. — 260 b.

6. Ishmuhamedov R.J., Yo‘ldoshev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Nihol, 2013. — 279 b.

7. Выготский Л.С. Мышление и речь: психологические исследования. — Москва; Ленинград: Соцэкгиз, 1934. — 324 с.

8. Эльконин Д.Б. Развитие устной и письменной речи учащихся // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии: работы советских авторов периода 1918–1945 годов / ред. И.И. Ильясов, В.Я. Ляудис. — Москва: Издательство Московского университета, 1980. — С. 254–265.

9. Жинкин Н.И. Механизмы речи. — Москва: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР, 1958. — 370 с.

10. Львов М.Р., Горецкий В.Г., Сосновская О.В. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учебное пособие для студентов учреждений высшего профессионального образования. — 8-е изд., стер. — Москва: Академия, 2013. — 461 с.

11. Ehri L.C. Learning to Read Words: Theory, Findings, and Issues // Scientific Studies of Reading. — 2005. — Vol. 9, No. 2. — P. 167–188. — DOI: 10.1207/S1532799XSSR0902_4.

12. National Reading Panel. Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading and Its Implications for Reading Instruction. — Washington, DC: National Institute of Child Health and Human Development, 2000. — 33 p.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AN’ANAVIY VA INTERFAOL DIDAKTIK O‘YINLAR INTEGRATSIYASI

Sharopova Gulnoza Shaxoviddin qizi,
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti,
Pedagogika nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
gulnozasharopova73@gmail.com

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini rivojlantirishda an’anaviy va raqamli didaktik o‘yinlarni uyg‘un qo‘llashning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Nutqiy madaniyatning tarkibiy ko‘rsatkichlari, o‘yin topshirig‘ini loyihalash mezonlari va pedagogik qayta aloqaning ahamiyati tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar qiyosiy tahlili asosida nutqiy maqsad, kommunikativ vaziyat, mustaqil nutqiy harakat hamda refleksiyani birlashtiruvchi metodik sikl taklif etiladi. Raqamli vositalardan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik, yosh xususiyatlari, teng imkoniyat va jonli muloqotni saqlash shartlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, nutqiy madaniyat, kommunikativ kompetensiya, didaktik o‘yin, raqamli ta’lim, og‘zaki nutq, dialog, refleksiya, teskari aloqa, metodik model.*

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В статье рассматриваются теоретико-методические основы интеграции традиционных и цифровых дидактических игр для развития речевой культуры учащихся начальных классов. Анализируются компоненты речевой культуры, критерии проектирования игровых заданий и роль педагогической обратной связи. Предлагается методический цикл, объединяющий речевую цель, коммуникативную ситуацию, самостоятельное речевое действие и рефлексию. Обоснованы условия педагогически целесообразного и доступного применения цифровых средств при сохранении живого общения.

Ключевые слова: *начальное образование, речевая культура, коммуникативная компетентность, дидактическая игра, цифровая образовательная среда, устная речь, диалог, рефлексия.*

INTEGRATING TRADITIONAL AND INTERACTIVE DIDACTIC GAMES TO DEVELOP PRIMARY SCHOOL PUPILS’ SPEECH CULTURE IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

This article examines the theoretical and methodological foundations for integrating traditional and digital didactic games to develop primary school pupils’ speech culture. It discusses key components of speech culture, criteria for designing game-based tasks, and the role of teacher feedback. A methodological cycle is proposed to connect a language goal, a communicative situation, independent spoken production, and reflection. Conditions for age-appropriate, equitable use of digital tools while preserving face-to-face interaction are outlined.

Keywords: *primary education, speech culture, communicative competence, didactic games, digital learning, oral language, dialogue, reflection, feedback.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining nutqiy madaniyatini rivojlantirish uning faqat ravon gapirishi yoki ko‘p so‘z bilishi bilan chegaralanmaydi. Nutqiy madaniyat fikrni mazmunan aniq, mantiqan izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri va muloqot vaziyatiga mos ifodalash, suhbatdoshni tinglash, navbatni saqlash hamda til birliklarini odob va maqsadga muvofiq tanlashni qamrab oladi. Shu sababli nutqiy madaniyatni rivojlantirish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining alohida vazifasi bo‘lish bilan birga, barcha fanlarda tashkil etiladigan ta’limiy muloqotning ham tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biri bo‘lib, ta’lim jarayonini shaxs rivoji va sifatli ta’lim olish huquqi bilan bog‘liq holda tashkil etish uchun me’yoriy asos yaratadi [1]. Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida bu

yo‘nalish o‘quvchilarning fikrini mustaqil bayon etishi, savol berishi, suhbatdosh fikriga munosabat bildirishi va o‘z nutqini turli kommunikativ vaziyatlarga moslashtirishi uchun sharoit yaratishni talab etadi.

Raqamli ta’lim vositalari kengayib borayotgan sharoitda didaktik o‘yinlarni yangi formatlarda tashkil etish imkoniyatlari ortmoqda. Interfaol taqdimotlar, elektron kartochkalar, audioyozuvlar, rasm va ketma-ket tasvirlardan foydalanish bolaga so‘z tanlash, hikoya tuzish, tinglab tushunish va javobini qayta ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha tayanchlar berishi mumkin. Biroq raqamli vositaning mavjudligi o‘z-o‘zidan nutqiy rivojlanishni ta’minlamaydi. O‘yin aniq nutqiy maqsadga, faol og‘zaki javobga va pedagogik qayta aloqaga ega bo‘lgandagina u ta’limiy vazifani bajaradi.

L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish haqidagi qarashlari bolaning bilishi va nutqi kattalar hamda tengdoshlar bilan o‘zaro ta’sirda rivojlanishini anglashga yordam beradi [2]. D.B. Elkonin esa o‘yin faoliyatining ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, rollarni bajarish va qoidalar asosida harakat qilishdagi o‘rnini tahlil qilgan [3]. Ushbu nazariy asoslar didaktik o‘yinni shunchaki ko‘ngilochar tanaffus emas, balki maqsadli kommunikativ tajriba tashkil etadigan pedagogik muhit sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini rivojlantirishda an’anaviy va raqamli interfaol didaktik o‘yinlarni integratsiyalashning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish hamda nutqiy maqsad, kommunikativ faoliyat, qayta aloqa va refleksiyani birlashtiruvchi metodik yechimni taklif etish.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asoslar. Nutqiy madaniyat ko‘p komponentli pedagogik hodisa sifatida tavsiflanadi. Uning tarkibida fonetik-orfoepik aniqlik, lug‘aviy va semantik to‘g‘rilik, grammatik me’yorlarga rioya qilish, gap va matnning mantiqiy izchilligi, ifodalilik hamda nutqiy etiketga moslikni ajratish mumkin. Boshlang‘ich sinfda bu komponentlar alohida-alohida o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lsa-da, real muloqotda ular bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi hikoya tuzayotganda tegishli so‘zlarni tanlaydi, gaplarni grammatik jihatdan bog‘laydi, voqealar ketma-ketligini saqlaydi va tinglovchiga tushunarli tarzda bayon qiladi.

Didaktik o‘yinlar ana shu murakkab faoliyatni kichik va boshqariladigan vazifalarga ajratish imkonini beradi. So‘z va ma’no o‘yinlari lug‘atni faollashtiradi; rolli o‘yinlar vaziyatga mos ifoda va muloqot odobini mashq qildiradi; hikoya tuzishga qaratilgan o‘yinlar matn izchilligi hamda bog‘lovchi birliklardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi; tinglash va javob qaytarish o‘yinlari esa dialogik muloqotning navbat almashish va mazmunni tushunish jihatlarini faollashtiradi.

O‘yin orqali o‘rganish bo‘yicha xalqaro dalillar uning imkoniyatlari bilan birga, dizayn va qo‘llash shartlariga bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. Skene va hammualliflar 39 tadqiqotni ko‘rib chiqib, 17 tadqiqot natijalarini meta-tahlilga kiritgan; boshqariladigan o‘yin ayrim ko‘rsatkichlar, jumladan fazoviy lug‘at kabi natijalarda ustunlik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, savodxonlik va barcha ijtimoiy-emotsional natijalar bo‘yicha bir xil ustunlik aniqlanmagan [4]. Bu xulosa o‘yin metodikasini “o‘yin har doim samarali” degan umumiy taxmin bilan emas, aniq o‘quv maqsadi va natija ko‘rsatkichlari orqali baholash lozimligini ko‘rsatadi.

Yang va hammualliflarning 2024-yilda e’lon qilingan tizimli sharhi K–12 ta’limida til o‘rgatish uchun o‘yinlardan foydalanishga bag‘ishlangan 83 ta SSCI maqolasini tahlil qilgan. Sharhda o‘yinli til ta’limi lug‘at, til ko‘nikmalari va kommunikativ faollikni qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi qayd etilgan; shu bilan birga, texnik qiyinchiliklar, hamkorlikdagi muammolar, topshiriq murakkabligi va ortiqcha kognitiv yuk kabi cheklovlar ham ko‘rsatilgan [5]. Ushbu tadqiqotlarning katta qismi chet tilini o‘rganish kontekstida olib borilganligi sababli, ularning natijalarini o‘zbek tilidagi nutq madaniyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish mumkin emas. Biroq o‘yin maqsadini aniq belgilash, faol nutqiy javob talab qilish va texnik vositani pedagogik boshqarish kabi dizayn tamoyillari uchun ular muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Thompson va von Gillernning raqamli o‘yinlar orqali lug‘at o‘rganishga bag‘ishlangan Bayes meta-tahlilida o‘yinli o‘qitish guruhlari foydasiga o‘rtacha ijobiy ta’sir qayd etilgan, biroq natijalar tadqiqotlar o‘rtasida sezilarli farqlangan [6]. Mazkur farqlanish o‘yin turi, vazifaning tuzilishi, o‘quvchi yoshi va mashg‘ulot davomiyligi muhim ekanini anglatadi. Shunday ekan, raqamli didaktik o‘yinlar umumiy ko‘ngilochar format sifatida emas, maqsadli til faoliyatiga biriktirilgan metodik vosita sifatida loyihalanishi lozim.

UNESCOning 2023-yilgi Global Education Monitoring hisobotida texnologiya ta’limda o‘quvchi va o‘qituvchini markazda saqlashi, insoniy muloqotni almashtirmasdan qo‘llab-quvvatlashi kerakligi ta’kidlanadi. Hisobot raqamli yechimlarning ta’limiy qiymati kontekst, teng imkoniyat va dalillar bilan asoslangan baholashga bog‘liqligini ko‘rsatadi [7]. Nutqiy madaniyatni shakllantirish masalasida bu prinsip ayniqsa muhim: og‘zaki nutqning tabiiy vazifasi odamlar o‘rtasida ma’no almashish bo‘lgani uchun raqamli mashq, albatta, jonli dialog, hikoya bayoni yoki og‘zaki izoh bilan yakunlanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola nazariy-metodik xarakterga ega. Tadqiqotning metodologik asosini nutq va tafakkur rivojlanishining ijtimoiy-madaniy talqini, o‘yin faoliyatining pedagogik

imkoniyatlari hamda raqamli ta’lim vositalarini maqsadga muvofiq qo‘llash tamoyillari tashkil etadi. Materialni ishlab chiqishda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, komponentli tahlil va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlilda an’anaviy didaktik o‘yinlarning jonli muloqot, harakat, rollarni almashtirish va bevosita teskari aloqa berish imkoniyatlari raqamli interfaol o‘yinlarning tasvir, audio, tezkor qayta aloqa, topshiriq variantlarini tabaqalashtirish va o‘quv natijasini saqlash imkoniyatlari bilan taqqoslandi. Tahlilning muhim sharti — texnologik vosita yoki o‘yin formatini o‘zicha natija deb qabul qilmasdan, uni o‘quvchining bajaradigan nutqiy harakati va kuzatiladigan natija bilan bog‘lashdan iborat bo‘ldi.

Maqolada taklif etilayotgan metodik model tayyor eksperimental natija sifatida emas, balki manbalar tahlili asosida shakllantirilgan ilmiy-metodik yechim sifatida qaraladi. Uning amaliy samaradorligini aniqlash uchun keyingi bosqichda boshlang‘ich sinflarda aniqlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, boshlang‘ich hamda yakuniy diagnostika natijalarini bir xil mezonlar asosida qiyoslash zarur.

Natijalar va muhokama. Nutqiy madaniyatni rivojlantirishda o‘yin topshirig‘ining didaktik tuzilishi

Tahlil natijasida didaktik o‘yinning nutqiy maqsadga xizmat qilishi uchun uning tashqi qiziqarliligi yetarli emasligi aniqlandi. O‘yin bolaning nutqiy harakatini yuzaga keltirishi, mazkur harakat kutilayotgan kompetensiyaga mos bo‘lishi va natijani kuzatish imkonini berishi kerak. Masalan, faqat to‘g‘ri javobni tanlashga asoslangan raqamli test so‘z ma’nosini tanish darajasini ko‘rsatishi mumkin, biroq o‘quvchining shu so‘zni mustaqil ravishda gapda yoki dialogda qo‘llay olishini to‘liq aniqlamaydi. Shu sababli tanlash topshirig‘idan keyin og‘zaki izoh, gap tuzish yoki juftlikda savol-javob tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur yondashuvda o‘yin topshirig‘i besh o‘zaro bog‘liq unsurdan tashkil topadi: 1) aniq nutqiy maqsad; 2) mazmunli kommunikativ vaziyat; 3) o‘quvchining faol nutqiy harakati; 4) mezonlarga asoslangan teskari aloqa; 5) refleksiya va ko‘nikmani yangi vaziyatga ko‘chirish. Bu tuzilma o‘yin jarayonida o‘quvchi nima qilishi, nima deyishi, qanday dalil bilan javob berishi va o‘qituvchi qaysi ko‘rsatkichni kuzatishini oldindan belgilash imkonini beradi.

An’anaviy va raqamli o‘yinlarni integratsiyalash modeli. An’anaviy o‘yinlar o‘quvchilarning ko‘zga-ko‘z muloqoti, ohang, mimika, navbat bilan gapirish, suhbatdoshning javobiga moslashish va guruhda hamkorlik qilish ko‘nikmalarini mashq qildirishga qulay. Raqamli o‘yinlar esa tasvirlar ketma-ketligini tez o‘zgartirish, audio namunalarni qayta tinglash, vazifani darajalash va individual javobga tezkor izoh berish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli ikki formatni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish o‘rniga, ularning funksional ustunliklarini bir dars siklida birlashtirish ilmiy-metodik jihatdan asosliroqdir.

Maqolada quyidagi metodik sikl taklif etiladi: “nutqiy maqsadni aniqlash — kommunikativ vaziyatni yaratish — o‘yinli nutqiy harakat — qayta aloqa — refleksiya — yangi vaziyatda qo‘llash”. Dastlab o‘qituvchi nutqiy maqsadni belgilaydi. Keyin o‘quvchilarni qiziqtiradigan, hayotiy tajribaga yaqin vaziyat yaratiladi. O‘yin davomida o‘quvchi so‘z tanlaydi, gap tuzadi, savol beradi, hikoya qiladi yoki suhbatdoshga javob qaytaradi. O‘qituvchi va tengdoshlar belgilangan mezonlar bo‘yicha fikr-mulohaza bildiradi. Yakunda o‘quvchi nimani muvaffaqiyatli bajargani va qaysi jihatni yaxshilashi kerakligini aniqlaydi.

1-jadval.

Nutqiy madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar tizimi

O‘yin turi	Nutqiy maqsad	Faoliyat namunasi	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
“Rasm-hikoya xaritasi” (an’anaviy/raqamli)	Monologik nutq va voqealar izchilligini rivojlantirish	Rasmlar ketma-ketligiga tayangan holda hikoya tuzish; “avval”, “keyin”, “so‘ng”, “natijada” birliklaridan foydalanish	Matn izchilligi, bog‘lovchi vositalar, mazmunning to‘liqligi
“Muloqot vaziyati” (rolli o‘yin)	Nutqiy etiket va dialogik muloqotni shakllantirish	Kutubxona, do‘kon yoki maktab kutubxonachisi bilan suhbat rollarini bajarish	Savolning mosligi, muloyim ifoda, navbatni saqlash, javobga munosabat
“So‘z ma’nosi detektivi”	Lug‘aviy aniqlik va so‘zlarni kontekstda qo‘llash	Sinonim tanlash, ko‘p ma’noli so‘zni gapda izohlash, tanlangan so‘z bilan yangi gap tuzish	So‘z tanlash aniqligi, ma’no mosligi, mustaqil gap tuzish
“Raqamli hikoya zanjiri”	Raqamli tasvirlarni izchil og‘zaki bayonga	Interfaol doska yoki kartochkadagi 3–5 tasvir asosida hikoya tuzib,	Mantiqiy ketma-ketlik, grammatik bog‘lanish,

O‘yin turi	Nutqiy maqsad	Faoliyat namunasi	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
	aylantirish	uni og‘zaki taqdim etish	taqdimot ravonligi
“Tingla va davom ettir”	Faol tinglash va mazmunli javob qaytarish	Juftlikdagi o‘quvchi hikoyaning bir qismini aytadi; sherigi asosiy mazmunni takrorlab, davomini yaratadi	Tinglangan mazmunni saqlash, mavzuga aloqador javob, suhbatdoshni tinglash
“Bir vaziyat — uch yechim”	Fikrni asoslash va nutqiy mustaqillikni rivojlantirish	Muammoli vaziyat uchun uch yechim aytish, ulardan birini sabab bilan himoya qilish	Dalil keltirish, sabab-oqibat bog‘lanishi, nutqiy izchillik

Manba: muallif tomonidan ilmiy manbalar tahlili va metodik modellashtirish asosida tuzilgan.

O‘yinlarni tashkil etishning metodik bosqichlari. Birinchi bosqich — diagnostik va maqsadli tayyorgarlik. Mashg‘ulot boshlanishida o‘qituvchi o‘quvchining nutqiy holatini qisqa og‘zaki topshiriq, rasm asosida hikoya, savol-javob yoki juftlikdagi muloqot orqali kuzatadi. Bu bosqichda maqsad o‘quvchini “yaxshi” yoki “yomon” deb baholash emas, balki qaysi nutqiy komponentni rivojlantirish zarurligini aniqlashdir. Masalan, o‘quvchi voqeani tushunsa-da, uni izchil bayon qila olmasligi mumkin; boshqasi esa ravon gapiradi, lekin so‘z tanlashda takrorlarga yo‘l qo‘yadi. Turlicha ehtiyojlar o‘yin topshiriqlarini tabaqalashtirishni talab qiladi.

Ikkinchi bosqich — motivatsion kirish va kommunikativ vaziyat yaratish. O‘yin mazmuni bolalarning kundalik tajribasiga yaqin bo‘lishi, biroq ularni yangi so‘z va nutqiy tuzilmalardan foydalanishga undashi kerak. Rasm, predmet, hikoya boshlanishi, audio lavha yoki muammoli savol diqqatni jalb qiluvchi tayanch bo‘la oladi. O‘qituvchi vaziyatni qisqa va tushunarli ifodalaydi, o‘yin qoidalarini namoyish etadi hamda kutilayotgan nutqiy natijani bolalarga aniq yetkazadi.

Uchinchi bosqich — yo‘naltirilgan o‘yin va mustaqil nutqiy ishlab chiqarish. Dastlab o‘qituvchi kerakli nutqiy modelni ko‘rsatishi yoki tayanch iboralarni berishi mumkin. Keyin yordam asta-sekin kamaytiriladi va o‘quvchi mustaqil gap, dialog yoki hikoya tuzishga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda muhim mezon — o‘qituvchining ko‘p gapirishi emas, balki o‘quvchilarning maqsadli nutqiy faoliyatga kirishishi. O‘yin qoidasi har bir ishtirokchiga mazmunli gapirish imkoniyatini berishi kerak.

To‘rtinchi bosqich — mezonli teskari aloqa. Fikr-mulohaza umumiy maqtov yoki xatolar ro‘yxati bilan cheklanmasligi lozim. Masalan, “Hikoyangda voqealar ketma-ketligi aniq; endi ikki gapni ‘shuning uchun’ yoki ‘natijada’ orqali bog‘lab ko‘r” kabi izoh o‘quvchiga keyingi qadami haqida ma’lumot beradi. Tengdoshlar bilan o‘zaro baholashda ham bolaning shaxsiga emas, bajarilgan nutqiy vazifaga e’tibor qaratish kerak.

Beshinchi bosqich — refleksiya va ko‘nikmani ko‘chirish. O‘yin yakunida o‘quvchi “Qaysi yangi so‘zni ishlatdim?”, “Fikrimni qanday izchil bayon qildim?”, “Suhbatdoshimni tinglash uchun nima qildim?”, “Keyingi safar nimani yaxshilayman?” kabi savollar orqali faoliyatini anglaydi. So‘ng shu ko‘nikma boshqa vaziyatda qo‘llanadi: masalan, “Kutubxona” rolli o‘yinida mashq qilingan muloyim murojaat kundalik sinf muloqotiga ko‘chiriladi. Ana shu ko‘chirish o‘yinni qisqa muddatli mashg‘ulotdan barqaror nutqiy odatni shakllantirish vositasiga aylantiradi.

Nutqiy madaniyatni baholash mezonlari. O‘yinli metodikaning natijadorligini baholash uchun o‘quvchi nutqining faqat hajmini yoki javoblar sonini hisoblash yetarli emas. Baholash bir nechta ko‘rsatkichni qamrab olishi va bir xil topshiriqlar yoki taqqoslanadigan vaziyatlar orqali takroriy kuzatishga imkon berishi kerak. Quyidagi mezonlar metodik diagnostika uchun taklif qilinadi; ular mahalliy o‘quv dasturi, sinf yoshi va tadqiqotning aniq maqsadiga muvofiq moslashtirilishi lozim.

Baholash jarayonida har bir mezon bo‘yicha kamida ikki yoki uch xil vaziyatdan olingan namuna tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Bitta javob o‘quvchining barqaror nutqiy madaniyatini to‘liq ifodalamasligi mumkin. Shu sababli kuzatish, og‘zaki topshiriq, juftlikdagi dialog, hikoya tuzish va o‘z-o‘zini baholash ma’lumotlarini birgalikda talqin qilish ishonchlilikni oshiradi. Agar metodika tajriba-sinovda qo‘llansa, boshlang‘ich va yakuniy baholash bir xil mezonlar asosida o‘tkazilishi, ishtirokchilar soni, sinf bosqichi, davomiylik va natijalarni hisoblash usuli to‘liq qayd etilishi lozim.

2-jadval.

Nutqiy madaniyatning taklif etilayotgan baholash mezonlari va darajaviy tavsiflari

Mezon	Yuqori ko‘rinish	O‘rta ko‘rinish	Boshlang‘ich ko‘rinish
Lug‘aviy-semantik aniqlik	So‘z va iboralarni mazmunga mos, takrorni kamaytirgan holda qo‘llaydi	Asosiy ma’noni yetkazadi, ayrim takror yoki noaniq so‘z tanlovi bor	So‘z tanlashda ko‘p yordam talab qiladi, fikr mazmuni noaniq qoladi
Grammatik va matniy izchillik	Gaplarni to‘g‘ri bog‘laydi, voqealarni mantiqiy ketma-ketlikda bayon qiladi	Umumiy ketma-ketlik saqlanadi, ayrim bog‘lanishlar uziladi	Gaplar o‘rtasidagi bog‘lanish sust, izchillik ko‘pincha yo‘qoladi
Ravonlik va ifodalilik	Fikrni tushunarli sur’atda, mos ohang bilan bayon qiladi	Fikr tushunarli, ammo pauza yoki takrorlar ko‘p uchraydi	Bayonda tez-tez to‘xtab qoladi yoki fikrni yakunlash qiyinlashadi
Dialogik muloqot va etiket	Suhbatdoshni tinglaydi, mavzuga mos javob beradi, muloyim ifodalardan foydalanadi	Muloqotga kirishadi, biroq savol-javob yoki navbatni saqlashda eslatma zarur	Muloqotni davom ettirish uchun muntazam ko‘mak kerak
Mustaqillik va refleksiya	Mustaqil nutqiy yechim tanlaydi va o‘z javobini tahlil qiladi	Qisman mustaqil ishlaydi, refleksiyada yo‘naltiruvchi savollar zarur	Tayanch va namunaga ko‘p bog‘liq, o‘z faoliyatini tahlil qilish qiyin

Manba: muallif tomonidan tadqiqot maqsadidan kelib chiqib ishlab chiqilgan metodik tavsif.

Raqamli o‘yinlarni qo‘llashdagi pedagogik shartlar va cheklovlar. Raqamli platformalar so‘zlarni guruhlash, tasvirni ketma-ket joylashtirish, audio tinglash, ovoz yozib qayta eshitish va individual topshiriqlar berish kabi vazifalarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Biroq ekran oldida javobni belgilash bolaning mustaqil og‘zaki nutqini o‘z-o‘zidan rivojlantirmaydi. Har bir raqamli topshiriqqa og‘zaki izoh, sherik bilan dialog, qisqa hikoya yoki javobni asoslash elementi qo‘shilishi kerak. Bu tamoyil raqamli o‘yin natijasini bevosita kommunikativ harakat bilan bog‘laydi.

Birinchi shart — pedagogik maqsadga moslik. O‘yin platformasi darsda o‘rganilayotgan so‘zlar, mavzu, nutqiy vazifa va sinfning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ikkinchi shart — texnologik yuklamani me’yorlash. Ko‘p animatsiya, tezlikka haddan tashqari urg‘u berish yoki bir vaqtning o‘zida ko‘plab qoidalarni bajarish asosiy nutqiy maqsaddan chalg‘itishi mumkin. Uchinchi shart — teng imkoniyat. Qurilma yoki internetga kirish cheklangan sinflarda shu topshiriqni rasmli kartochkalar, doska yoki guruh materiali orqali bajarishning muqobil varianti bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi shart — bolaning shaxsiy ma’lumotlari va xavfsizligi. Raqamli faoliyat uchun keraksiz shaxsiy ma’lumotlarni yig‘maslik, bolalarning ovoz yoki tasvir yozuvlaridan foydalanishda muassasa qoidalariga rioya qilish hamda platforma tanlashda maxfiylik shartlarini tekshirish zarur. Beshinchi shart — o‘qituvchining vositachilik roli. O‘qituvchi texnologiyani ishga tushiruvchi shaxs bilangina cheklanmaydi; u nutqiy maqsadni belgilaydi, o‘quvchining javobini mazmunan tahlil qiladi, xatoni rivojlantiruvchi fikr-mulohazaga aylantiradi va o‘quvchilar o‘rtasida jonli muloqotni tashkil etadi.

Shunday qilib, an’anaviy va raqamli didaktik o‘yinlarni integratsiyalashda ularning o‘zaro to‘ldiruvchi vazifalari belgilanadi: raqamli vosita vaziyatni ko‘rgazmali va moslashuvchan taqdim etadi, an’anaviy o‘yin esa yuzma-yuz muloqot, tabiiy dialog va ijtimoiy nutqiy xulqni mashq qildiradi. Metodik samaradorlik esa texnologiyaning yangiligiga emas, o‘quvchining aniq nutqiy faoliyatga qanchalik jalb etilganiga va natija qanday baholanganiga bog‘liq.

Xulosa va takliflar. Ilmiy manbalar tahlili va metodik modellashtirish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini rivojlantirishda an’anaviy hamda raqamli didaktik o‘yinlarni yagona maqsadga yo‘naltirilgan tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq ekani asoslandi. Nutqiy madaniyat faqat lug‘at boyligi yoki ravon gapirish bilan belgilanmaydi; u lug‘aviy aniqlik, grammatik to‘g‘rilik, matn izchilligi, ifodalilik, tinglash va kommunikativ odobning o‘zaro birligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘yinli mashg‘ulotlar ushbu komponentlarni birgalikda yoki aniq belgilangan maqsadlar bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlantirishi kerak.

Tahlil o‘yin metodikasining samarasi uning qiziqarliligi bilangina emas, balki didaktik maqsad, kommunikativ vaziyat, o‘quvchining mustaqil nutqiy harakati, mezonli teskari aloqa va refleksiyaning mavjudligi bilan belgilanishini ko‘rsatdi. Shu nuqtayi nazardan maqolada “nutqiy maqsad — kommunikativ vaziyat — nutqiy harakat — qayta aloqa — refleksiya — yangi vaziyatda qo‘llash” sikli taklif etildi. Mazkur sikl o‘qituvchiga har bir o‘yinning qaysi ko‘nikmani rivojlantirishi va qanday natijani kuzatish mumkinligini oldindan belgilash imkonini beradi.

Xalqaro adabiyotlar raqamli o‘yinlar va boshqariladigan o‘yin faoliyatining muayyan sharoitlarda ijobiy imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatsa-da, natijalar barcha ko‘nikmalar va vaziyatlarda bir xil emas. Shu sababli raqamli o‘yinlarni jonli muloqot o‘rniga qo‘yish emas, balki uni ko‘rgazmali material, takroriy mashq, audio tayanch va tezkor teskari aloqa bilan boyitish vositasi sifatida qo‘llash zarur. O‘quvchi raqamli topshiriqni bajargach, o‘z javobini og‘zaki tushuntirishi, hikoya qilishi yoki sherigi bilan dialogga kirishishi lozim.

